

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

XIDIROVA NARGIZAXON O‘RINOVNA

**Oila-nikoh munosabatlarida ayollarning mavqeyi (XVI-XX asr boshlari O‘rta
Osiyo xonliklari misolida)**

07.00.01-O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (ДСс) диссертации

Contents of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation

Xidirova Nargizaxon O‘rinovna

Oila-nikoh munosabatlarida ayollarning mavqeyi (XVI-XX asr boshlari O‘rta Osiyo xonliklari misolida)..... 3

Хидирова Наргизахон Ўриновна

Положение женщины в семейно-брачных отношениях (на примере среднеазиатских ханств XVI-начала XX вв.)..... 35

Hidirova Nargizaxon O‘rinovna

The position of women in family and marital relations (using the example of the Central Asian khanates of the 16th - early 20th centuries)..... 71

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 76

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

XIDIROVA NARGIZAXON O‘RINOVNA

**Oila-nikoh munosabatlarida ayollarning mavqeyi (XVI-XX asr boshlari O‘rta
Osiyo xonliklari misolida)**

07.00.01-O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B.2021.4.DSc/Tar31 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-tarix.nuu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Karimov Elyor Erikovich
tarix fanlari doktori, Xofstra universiteti
professori (AQSH)

Rasmiy opponentlar:

Bobojonova Dilorom Bobojonovna
tarix fanlari doktori, professor

Aminov Bobur Bobomurodovich
tarix fanlari doktori

Bekmirzaev Ilhomjon Isroiljonovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil _____soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.) Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “__”_____ kuni tarqatildi.

(2025 yil “__”_____dagi ___ - raqamli reestr bayonnomasi).

A.Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, akademik

Y.R.Tayronov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tarix fanlari nomzidi, dotsent

F.O.Ismatullaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc)

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo‘ylab sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlari, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlar ayollarning oila va jamiyatdagi rolini ortib borayotgani to‘g‘risidagi masalalar doirasida savollar tug‘diradi. Ayollar erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lib ular qatoriga ishlash, maosh olish, ta‘lim olish, saylovlarda ishtirok etish va saylanish kabilarni kiritish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham ayollarga nisbatan kamsitish va zo‘rovonliklar saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi” konvensiya qabul qilingan. Konvensiyaqa ko‘ra barcha davlatlar mazkur holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy va madaniy modellarini o‘zgartirishi kerakligi belgilab berilgan¹.

Dunyoda ayollarning oila-nikoh munosabatlarida tutgan o‘rni, jamiyatdagi mavqeyining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy shakllanish bosqichlari, rivojlanish tendensiyalari doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga G‘arb dunyosidagi ayollarning tarixiga hamohang tarzda Sharq dunyosida ayollarga bo‘lgan munosabat, an‘analari tizimi tarixini tadqiq etishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda erishilgan natijalar ma‘lum bir xulosalar chiqarish hamda nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham oila, xotin-qizlar, yoshlar tarbiyasiga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta‘kidlaganidek, “bitta qizni o‘qitsak, butun oilaga ta‘lim bergan bo‘lamiz. Agar oila bilimli, ma‘rifatli bo‘lsa, jamiyatning ongi, madaniy darajasi ham yuksaladi”². Shu bois “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”da xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning qonuniy manfaatlarini ximoya qilish, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash muhim vazifa sifatida belgilangan³. Shu bois, ayollarga oid masalalarni har tomonlama ilmiy tadqiq qilish va o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ushbu masalaga oid muammolarning zamonaviy ilm-fan nuqtai nazaridan tushunish uchun ularning asl mohiyati aks etgan tarixiy ildizlariga murojaat qilish zarurati mavjud.

O‘rta asrlarda yashagan ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, oila-nikoh munosabatlaridagi o‘rni, gender munosabatlari kabi masalalar, afsuski, hozirgi kungacha O‘zbekiston tarixida alohida tadqiq qilinmagan. Shuningdek, ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeini bosqichma-bosqich ortib yoki pasayib borish jarayonlari, Markaziy Osiyoda yashagan o‘troq, ko‘chmanchi va yarim o‘troq aholining urf-odat, an‘analari, shariatdagi urf masalalari hozirgacha tadqiq qilinmagan mavzulardan biridir.

¹Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариға барҳам бериш тўғрисидаги Конвенция. Тошкент. БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 1998. - Б. 1-3.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 07.03.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/7928> (murojaat qilingan sana: 10.03.2025).

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли фармони. <https://www.lex.uz/docs/6600413> (murojaat qilingan sana 12.04.2024).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PF-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 20 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5834-son, 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-sonli farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida», 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2019 yil 11 iyuldagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4390-sonli Qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴. Dunyo miqiyosida ayollarning mavqei, ularning oila va jamiyatda tutgan o‘rni, nikoh munosabatlari turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Jumladan, nikoh munosabatlari, islom shariy qoidlaridagi o‘rni, ijtimoiy–siyosiy mavqeyi, gender masalalari xorijdagi yetakchi ilmiy markazlar, oliy o‘quv yurtlarida, xususan The University of California (Kaliforniya universiteti AQSh), Drew University (Dryu universiteti AQSh), University of Maryland (Merilend universiteti AQSh), University of Wyoming (Vayoming universiteti AQSh), Indiana University Bloomington (Indiana universiteti AQSh), Kenyon College (AQSh), Universiti Malaya (Malaya universiteti Malayziya), The Women University Multan (Mo‘ltan ayollar universiteti Pokiston), University of Western Sydney (G‘arbiy Sidney universiteti Avstraliya), Université Laval (Laval universiteti Kanada), Universität Bonn (Bonn universiteti Germaniya), Europos humanitarinis universitetas (Evropa gumanetar universiteti Litva), University of Belgrade (Belgrad tarix instituti Serbiya), Kadir Has University (Kadir Xas universiteti Turkiya), Rossiya FA etnologiya v antropologiya instituti (RF), al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti (Qozog‘iston), oila va gender ilmiy tadqiqot instituti (O‘zbekiston), O‘zR Xalqaro Islom akademiyasi (O‘zbekiston), Sharqshunoslik universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

⁴<https://www.dissercat.com>, <https://iea-ras.ru/?p=1173>, <https://ru.ehu.lt/nauka/tsentryi/tsentr-gendernyih-issledovaniy/>, <https://infostudy-usa.com/drew-university>, <https://umd.edu/>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.uwyo.edu/index.html>, <https://www.um.edu.my/> va boshqa manbalardan olindi.

Ayollarning mavqei, ularning oila va jamiyatda tutgan o'rnini, nikoh munosabatlari masalalari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: turli millatga mansub ayollarning gender tengligi, feministik qarashlar, ayollarning go'zallik va san'atdagi o'rnini (Kaliforniya universiteti, AQSh), jins, irq, etnik mansublik, ayollarning ijtimoiy tabaqalari, yoshi, qobilyati, ayollar masalasiga yondashishning uslub va metodlari (Dryu universiteti, AQSh), ayollar hayotida ro'y bergan o'zgarishlarning tarixiy jihatlari, ularning jabr-zulm, qaramlik, tutqunlik, turli bid'atlardan qutilishi (Vayoming universiteti, AQSh), yirik imperiyalarga qarashli bo'lgan hududlarda yashovchi mahalliy ayollar hayoti, ularga imperiya siyosatining ta'siri (Merilend universiteti, AQSh), islom dinida ayollarning huquqlari, kiyinish madaniyati, qozilik hujjatlarida ayollar masalasi (Bonn universiteti, Germaniya), ayollar ta'limi, ilmiy tadqiqotlarini rivojlantirish masalalari (Mo'ltan ayollar universiteti, Pokiston) ochib berilgan.

Hozirgi kunda xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalarida Markaziy Osiyo tarixi masalalari bilan bir qatorda ayollarning oila va jamiyatda tutgan o'rnini XIX asr oxiri XX asr boshlari Rossiya imperiyasi davri, mustaqillik yillari doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan dastlabki tibbiy muassasalarga ayollarning munosabati, shaxsiy gigena, farzand ko'rish jarayonida hamshira ayollarning ishtiroki, mehnat migratsiyasida ishtirok etayotgan xotin-qizlar, migratsiyaning oilalarga ta'siri kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oila-nikoh munosabatlari tizimida ayollarning tutgan o'rnini, mavqeyi masalalari O'rta Osiyo xonliklari misolida O'zbekiston tarixida alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Shunday bo'lsa-da, mazkur masalaning ba'zi bir jihatlari ayrim ishlarida qisman o'z aksini topgan. Ushbu tadqiqotlarni *hududiy* (Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari va Turkiston general-gubernatorligi), *muammoviy* (tarixshunoslik masalalari, ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, etnografik, ayollarning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyati), *shariy* (nikohdagi o'rnini, islom fiqhshunosligi, qozilik sudlari va hujjatlari bilan bog'liq adabiyotlar) yondashuvlar hamda *xorij adabiyotlari* asosida **to'rt guruhga** ajratish mumkin.

Buxoro⁵ (1501 – 1753 yillarda xonlik davrlari; 1753 – 1920 yillarda amirlik davrlari)⁶, Xiva (1516 -1920)⁷ va Qo'qon (1710 – 1876 yillar) xonliklari⁸, safarnoma

⁵Tadqiqotda asosan Buxoro xonligi termini qo'llanildi. Bunda eng avvalo Buxoro tarixi bilan bog'liq fundamental tadqiqotlar yaratgan olimlarning ishlariga tayanildi. Ularning aksariyatida XVI-XX asr boshlarigacha bo'lgan davr Buxoro xonligi deb olingan. Ikkinchidan, o'quvchini chalg'itmaslik uchun shu usul qo'llanildi.

⁶Boltayev A. Xorazm tarixiga doir materiallar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (bundan buyon: O'zRFA SHI) qo'lyozmalar bo'limi №9320. Asar 1950 yild eski o'zbek tili yozuvida bitilgan. *بالتایف ا خوارزم تاریخیکا اید ماتیریا لالار*; Юсупов Ш. Положение женщин в Восточной Бухаре в конце XIX и начале XX в. // Изв. АН ТаджССР. Отд. обществ. наук. – Душанбе, 1963. – Вып. 1. – С.45 – 50; Астанова Г.О. положение женщин в Бухарском ханстве в конце XIX начале XX в // Женщины востока. Отв. Ред. С.А. Азимджанова. Ташкент. 1977. – С.125 – 132; ushbu muallif. О социально-экономическом и правовом положении женщин в Бухарском ханстве (по материалам архивных документов нарративных источников XIX – XXв) // Ислам и женщины востока.Отв. Ред. М.М. Хайруллаев. Ташкент. 1990. – С.46 – 62; Мукминова Р.Г. Истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам “Вакф-наме”. Ташкент. 1966. – С. – 339; Саидахмедова Р. “Воспоминания”. С. Айни как исторический источник о положении женщин в Бухарском эмирате // Материалы по истории и истории культуры Таджикистана. Душанбе. 1981. – С.243; Файзиев Т. Бухоро хонлигида кул савдоси. Тошкент. 1970. - Б. 56; Mazkur asarning to'ldirilgan qayta nashri. Бухоро феодал жамиятида куллардан фойдаланишга доир хужжатлар (XIX аср). Тошкент. 1990. - Б. 120.

⁷ Эрназаров Ф. XIX аср охири – XX аср бошларида Хоразм воҳаси аёлларининг ижодий фаолияти. Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (илмий-амалий конференция маърузалари, 23 декабрь 2004). Тошкент. 2005. – Б.48 – 54; Полвонов Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хоразм воҳасидаги аёллар микродорининг демографик таҳлили

va esdaliklar, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan hududlarda istiqomat qilgan ayollarga oid ma'lumotlar⁹, tarixshunoslik masalalari¹⁰, Ijtimoiy-falsafiy yo'nalishdagi tadqiqotlar¹¹, Ayollarning zamonaviy huquqlariga oid masalalar¹², etnografik¹³, Ayollarning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyati¹⁴, Ayollarning shariy

// ЎзМУ хабарлари. Махсус сон. Тошкент. 2010. – Б.186 – 189; ushbu muallif. Хоразм воҳасидаги аёллар: 1897 ва 1910 йиллардаги аҳоли рўйхати асосидаги миқдорий таҳлил // International Journal of Central Asian Studies. Сеул. 2010. – Б. 213-224; Раҳмонова Ю.М. Хива хонлиги аёлларининг кундалик ҳаёти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Тошкент. 2019. – Б.262 – 268; ushbu muallif. Мозий эътиқодларида аёл зоти илоҳалари (Хоразм воҳаси мисолида). Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива. 2018. №4. – Б.85 – 88.

⁸Хуршут Э. Амир Умархоннинг канизи. Шарқ Юлдузи. 1989. №9. <https://ziyouz.uz> (murojaat qilingan sana 5.01.2017) ; Воҳидов Ш. Амир Насруллохоннинг Қўқон хонлигига 1842 йилги юриши ҳақида (сабаб, баҳона ва оқибатлар) // Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Фарғона. 2009. – Б.174 – 183; Бобоҷонов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религи. Токио-Ташкент. 2010. – С.580 – 592; Каримов Н. Абдулла Қодирий ва Амир Умархоннинг канизи // Водийнома. №2 (4). Андижон. 2017. – Б.82 – 90; Shuningdek, R. Nabiev va N. Bobobekovlar ham mazkur masalaga to'xtalib o'tganlar. Qarang: Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худояр-хана). Ташкент. Фан. 1973. – С. 388; Бобобеков Х. Қўқон тарихи Тошкент. Фан. 1996. – Б. 239.

⁹Абдуллева Я. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун XIX асрнинг охири XX аср. Тошкент. 2004. – Б. 223; Шодмонова С.Б. Туркистонда оила ва никоҳ масалалари ҳақида ижтимоий қарашлар. Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (илмий-амалий конференция маърузалари, 23 декабрь). Тошкент. 2004. – Б.44 – 48; Маҳкамова Н.Р. Женщина и ислам в истории Туркестана. Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (илмий-амалий конференция маърузалари, 23 декабрь). Тошкент. 2004. – С.37–44.

¹⁰Алимова Д.А. Решение женского вопроса в Узбекистане (1917-1941 гг.). Краткий историографический очерк. Ташкент. 1987. – С. 68; ushbu muallif. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы. Т. 1991. – С. 32; Нишанбаева К. В. Культурные аспекты решения женского вопроса в Узбекистане (20–30 годы). Опыт и последствия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат исторический наук. Ташкент. 1998. – С. 32; Зикриева М.Ф. Историография проблемы женщин Таджикистана. Диссертация на соискание ученой степени доктор исторических наук. Москва. 2002. – С. 30; Ражабоева Д.Н. Туркистон жадидаларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т. 2003. – Б. 168.

¹¹Холматова М. Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент. 1998. – Б. 28; Сафаева С.Х. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлари. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент. 2001. – Б. 30; Нажмиддинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Тошкент. 2016. – Б. 59.

¹²Рашидова С.Ш. Ўзбекистонда хотин-қизларнинг аҳолини яхшилаш муаммолари // Ўзбекистонда гендер ва ривожланиш хабарномаси. Тошкент. 1999. №2. – Б.17–23 ushbu muallif. Омбудсман и защита прав женщин на социальное развитие // Аёл ва ҳуқуқ. Тошкент. 1999. – С.29–40; Отахўжаев Ф. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. Тошкент. 1995. – Б. 164; Маткаримова Г.А. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктор юридических наук. Ташкент. 2002. – С. 29; Хожаева С.А. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Ташкент. 2004. – С. 29; Ўрозалиева Г.Б. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент. 2009. – Б. 136.

¹³Сухарева О.А. Свадебные обряды таджиков г. Самарканда и некоторых других районов Средней Азии // Советская Этнография. Сборник статей III. Москва. 1940. – С.174–176. <https://www.twirpx.com>. (murojaat qilingan sana 2.01.2016.); Лобачева Н.П. К истории среднеазиатского костюма (женские головные халаты-накидки) // Советская Этнография. 1965. № 6. – С. 34–49; Ushbu muallif. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. Москва. 1976. – С. 323. Бижанова М.А. Одежда узбечек Ташкента XIX – начала XX в. Костюмы народов Средней Азии (историко-этнографические очерки); Академия Наук СССР. Издательство Наука. Москва. 1979. <https://www.fergananews.com> (murojaat qilingan sana 7.04.2017).

¹⁴Файзиёв Т. Темур ҳарамии маликалари // Фан ва турмуш. №1. Тошкент. 1993. – Б. 31–36; Ushbu muallif. Темурий маликалар. Тошкент. 1994. – Б. 40; Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. *Томир хотун, Қабаж хотун, Сароймулкхоним, Гавҳаршодбегим*. Тошкент. 2002. – Б.50; Камолиддин Ш.С. О роли женщин в тюркском обществе. Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (илмий-амалий конференция маърузалари, 23 декабрь). Тошкент. 2004. – С.16 – 24; Камолиддин Ш.С., Тожибоев Р. Қурбонжон додхоҳ ҳақида ривоятлар хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000. №5. – Б.44–47; Кененсариев Т. Қурмонжон додхоҳ феномени. Водийнома. №1.

nikohdagi o‘rni¹⁵, Islom fiqhshunosligi¹⁶, Qozilik sudlari va hujjatlari bilan bog‘liq adabiyotlar¹⁷.

Mavzuning xorij tarixshunosligi masalasiga kelsak, bunday tadqiqotlar asosan musulmon (islom) huquqi, islom diniga e‘tiqod qiluvchi turli hududlarda yashagan musulma ayollar hayoti va ularning oila-nikoh munosabatlaridagi o‘rni kabi jihatlarni qamrab olgan¹⁸. Mazkur tadqiqotlar muammoning tarixshunoslik masalalarini tahlil etishga xizmat qiladi. Muammoning o‘rganilish darajasi tadqiqot ishining 2.2-§ paragrafidagi ba’tafsil bayon etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy ishlar rejasining “O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganish va targ‘ib qilish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yu.).

Tadqiqotning maqsadi XVI – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklari hududida yashagan ayollarning mavqeyini oila-nikoh munosabatlari doirasida ilmiy

Андижон. 2016. – Б.58–63; Турсунова М. Хандамова М. Судба Гаухар Шад бегим – царицы и матери. Ташкент. 2017. – С. 46.

¹⁵Ишанова Ш.А. Правовое регулирование семейных отношений коренного населения дореволюционного Узбекистана // Общественные науки в Узбекистане. 1991. №12. – С.39–43; Қориев О. “Ҳидоядан” никоҳ китоби. Ҳаёт ва қонун. 1994. №3. – Б.61-70. Ushbu muallif. Ислом ҳуқуқшунослиги ва Бурхониддин ал-Марғинович. Ҳаёт ва қонун. 1994. №2. – Б.53-60.

¹⁶Бабаев Х. Политическая и правовая мисл Узбекистана в XIV – XV веках. Автореферат на соискание ученой степени доктора юридических наук. Ташкент. 1993. – С. 44; Саидов А.Х. Основы мусульманского права. Курс лекций. Ташкент. Акад. МВД Республики Узбекистан. 1994. – С. 61; Муқимов З.Основанные исторические источники право в Узбекистана (VIII–XIX). Автореферат на соискание ученой степени доктор юридических наук. Ташкент. 1997. – С. 40; Қаримов Д.А. Становление и развитие основных институтов мусульманского права в Мавероуннахре (VIII–XIII вв.); Историко-правовые исследования. Автореферат диссертации кандидат юридических наук. Ташкент. 1997. – С. 40; Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Ислом ҳуқуқшунослиги, ханафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. Тошкент. 2002. – Б. 257; Муқимов А.К. Рол и места ханафитских улама в жизни городов центрального Мавераннахра (II–VII / VIII–XIII вв.). Автореферат на соискание ученой степени доктор исторических наук.Ташкент. 2003. – С. 44; Ushbu muallif. Ханафитский мазҳаб в истории Центральной Азии. Под редакцией С.М. Прозорова. Алматы. 2015. – С. 400; Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 3-жуз. Тошкент. 2008. – Б. 640; Ushbu muallif. Кифоя. 2-жуз. Тошкент. 2011. – Б. 640; Ushbu muallif. Усулул фикҳ. Тошкент 2011. – Б. 592;– Р.405 – 440; Бекмирзаев И.И. Мовароуннахрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдишлар ва таҳлилий ёндашувлар. – Тошкент.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2014.

¹⁸Шарл Р. Мусульманское право. Перевод с французского С. И. Волка, под редакцией и с предисловием Е. А. Беляева. Москва. 1959. – С. 142; Садагдар М. И. Основы мусульманского права. Москва. 1968. – С. 159; Муҳаммад ибн Абд ал-қарим аш-Шахристани. Книга о религиях и сектах (китаб ал-милал ва-н-нихал). Част 1. Ислам. Перевод с арабского, введение и комментарий С.М.Прозорова. Москва 1984. – С. 272; Прозоров С.М. К вопросу о «прововерии» в исламе: понятие ахл ас-сунна (сунниты) // Проблемы арабской культуры. Памяти академик И.Ю. Крачковского. Москва. 1987. – С.213 – 218; Сьюкяйнен Л.П. Мусульманское право: вопросы теории и практика. Москва. 1986. – С.256; Буриев Б.И. Действие мусульманского права в дореволюционном Таджикистане. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Душанбе. 1998. – С.204; Marianne Kamp. The new woman in Uzbekistan. Islam, modernity, and unveiling under communism. University of Washington press Seattle & London. 2006; Керимов Г.М. Шариат закон жизни мусульман. Ответы шариата на проблемы современности. Москва. 2009. – С.512; Мухаметзарипов И.А. Особенности функционирования норм шариата в мусульманском сообществе России в конце XVIII - начале XX вв. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Казан. 2010. – С.236; Nurten Kilic-Schubel. Writing women: women’s poetry and literary networks in nineteenth-century Central Asia // Horizons of the world: Festschrift for Isenbike Togon. Edited by: Ilker Evrim Binbas/Nurten Kilic – Schubel. Ithaki. 2011; Нургалеев Р.М. Классическое исламское семейное право. Казан. 2016. – С.100; Women’s waqfs in Islamic Civilization. Edited by: Dr. Halit Eren. Prepared for publication Dr. Najat Sayem Khalil, Dr. Cengiz Tomar, Dr. Betul Ayaz. IRCICA. Istanbul. 2018.

asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qadimdan XVI asrgacha ayollarning oila va jamiyatdagi o'rnini tarixiy aspektlar asosida ko'rsatib berish;

Oila-nikoh munosabatlariga oid masalalarni manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai-nazardan tahlil qilish;

Ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi ishtirokini ko'rsatib berish;

Oila-nikoh munosabatlarida shariy qoidalar, urf va hujjatlashtirish jarayonlarini ochib berish;

Nikoh *aqdi*, *mahr*, ta'loq (ajrashish), nafaqa va yetim bola masalalarida ayollarning tutgan o'rnini aniqlash;

Ayollar masalasiga oid ma'lumotlarni tizimlashtirish.

Tadqiqotning obyektini XVI – XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari hududida yashagan ayollarning oila-nikoh munosabatlaridagi mavqeyi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini XVI – XX asr boshlariga oid eski o'zbek (chig'atoy), fors tilidagi birlamchi qo'lyozma manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy, badiiy, arxeologik adabiyotlarda aks etgan oila-nikoh munosabatlariga oid ma'lumotlar orqali ayollarning mavqeyini ochib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xronologik, mikrotarix (*microhistory*), qiyosiy tahlil (*somparative analysis*), statistik tahlil (*statistical analysis*), induktiv va deduktiv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Oila-nikoh munosabatlariga oid manbalar va hujjatlarda ayollarga nisbatan **ترم** (*tarim*), **آبا** (*aba*), **آپا** (*apa*), **قازن** (*qazin*), *bonu*, *xonum*, *begim*, *og'olog'a*, *oqa/aka*, *bekach* kabi so'zlar bilan murojaat qilinganligi aniqlangan;

XVI-XX asr boshlariga oid devon hujjatlari, oila-nikoh munosabatlari aks etgan hujjatlarning *formulyarlari*, rasmiylashtirish tizimi, amaliyotga tadbiq etilish mexanizmlari ochib berilgan;

Buxoro va Qo'qon xonliklaridan farqli ravishda Xiva xonligida ayrim nikoh shartnomalari oldi-sotti (*bay'* yoki *bayaa*) ko'rinishida rasmiylashtirilganligi va bunda ayrim Hanafiy ulomolarining nikohni *bayaa* lafzi bilan bog'lash mumkinligi to'g'risidagi rivoyatlariga amal qilinganligi dalillangan;

Qo'qon xonlari arxivi (I.No1043. 1-ro'yxat.) va Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasida meros, *iqror xati*, nikohona puli, *sag'ir* (etim)lar masalasi, *mahr*, xon *harami* bilan bog'liq hujjatlar saqlanishi va bunday hujjatlar Buxoro hamda Xiva xonliklari fondlarda deyarli uchramasligi ko'rsatib berilgan;

XVI-XX asr boshlarida asosan mahr belgilangandan keyin nikoh *ahdi* (yoki *aqd*) tuzilganligi, *taloq xatlari* esa turli sabablar bilan ajrim qilingan oilalarga tegishli qozi qarorlaridan iborat bo'lganligi, ularda nikohni bekor qilishga sabab bo'lgan omillar, taloq turlari, ajralish huquqining ayol kishiga berilishi (*xulu'*), mahr va nafaqa masalalari o'z aksini topganligi dalillangan;

Ayollar Oila va nikohga tegishli masalalarda hukumdor, malika yoki ma'sul shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi, ular qozi, biy yoki mirovoy sudyalarga mahrni talab qilish, qalinni qaytarish, urning merosidan ulush olish, taloq va nafaqa masalalarida ariza bilan murojaat qilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida¹⁹ saqlanayotgan **مجموع الوسائق** majmua’ ul-vasoyiq (“vasiqalar to‘plami”) (№1386), **جونگ** Jung (№8887, № 8412) kabi qo‘lyozma asarlarda *xatt-i nikoh* (nikoh xati), *vasiqa-i taloq* (taloq *vasiqasi*), *xatt-i iqrorayi zavja* (xotin (ayol)ning iqror xati) kabi hujjatlarning yozilish formulyalari va asl nusxalari mavjudligi aniqlanib ilmiy muomlaga kiritilgan;

Qo‘sh (qush)begi mahkamasi arxivi fondi (I-126. 1-2-ro‘yxat)da saqlanayotgan №1701, №1702, №1703, №1729 raqamli jildlarda saqlanayotgan hujjatlar oila-nikoh munosabatlariga tegishli ekanligi, xususan, №1729 raqamli hujjatlar jildida qozi devonxonasi tasdiqlangan maxzar (**محضر**) va rivoyat (**رواية**)lar jamlanganligi (umumiy soni 108 ta) ularning 7 tasi taloqqa, 2 tasi iddaga, 1 tasi taloq talab qilish (*xulu*)ga, 2 tasi *mahrga*, 2 tasi nikoh (nikoh hujjati)ga, 2 tasi vakil masalasiga tegishlilik aniqlangan va ular ma‘lumotlarni kengaytirishga xizmat qilgan;

Xiva xonlari devon hujjatlari fondi (№ I-125, 1-ro‘yxat)da maxzar va da‘vo arizalari (№581. 12 varaq), rivoyatlar (№582. 54 varaq, №589), nikoh *aqdi* va taloq masalalarini rasmiylashtirishga oid hujjatlar (№595), bolani tarbiyaga olish, qozining nikoh uchun ruxsati (№603), nikohona va tariqona pullarini undirish (№645), №582 yig‘ma jildda esa *idda* (1 ta), voyaga yetmagan qizni nikohi (1 ta), voyaga yetgan qizni otasi bilan yashashi masalasi (1 ta), kufu (tenglik) to‘g‘risidagi hujjat (1 ta), mahрни kechiktirish to‘g‘risida (2 ta), ayolning g‘oyib bo‘lishi (1 ta), jihozlar haqida (1 ta)gi masalalar, №586 yig‘ma jildda *sag‘ir* (etim) qizlarning merosiy mulkining sarf-xarajatlari yozilgan “*Sag‘ir* daftari” saqlanayotganligi ko‘rsatib berilgan;

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining “Qo‘lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar” bo‘limida saqlanayotgan XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid Turkistonda nashr qilingan ayrim bosma asarlar, gazeta va jurnallar asosida oila-nikoh munosabatlariga oid ma‘lumotlar tizimlashtirilib ochib berilgan;

Ayollarning o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni, XVI-XX asr boshlariga oid qo‘lyozma manbalar arxiv hujjatlarida aks etgan oila-nikoh munosabatlari, vaqf mulklarini ta‘sis etgan va uni boshqargan (*mutavali*) ayollar, o‘rta asrlarda yashagan ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda tutgan o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilgani, tarixiy adabiyotlar, qo‘lyozma manbalar, arxiv materiallaridan foydalanilgani, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, nazariy masalalarning mahalliy va xorijiy matbuot nashrlarda e‘lon qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oila-nikoh munosabatlarida ayollarning mavqeini tarixiylik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilishiga erishilgani, mazkur muammoga oid nazariy-metodologik tavsiyalar, ilmiy xulosalar ishlab chiqilgani, oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy ishlanmalari va grant loyihalarini nazariy jihatdan mukammallashtirishga xizmat qilgani bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy

¹⁹Bundan buyon O‘zR FA ShI.

ahamiyati shundaki, unda yoritilgan ma'lumotlar va materiallardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida eferga uzatilgan "Nafosatnoma" ko'rsatuvining o'nga yaqin senariylarini yozishda foydalanilgani hamda ayollar masalasini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishga muayyan darajada xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Oila-nikoh munosabatlarida ayollarning mavqeyi (XVI-XX asr boshlari O'rta Osiyo xonliklari misolida)" nomli tadqiqot ishi natijasida:

qozilik institutining muhim qismi bo'lgan qozilik mahkamasi faoliyati tarixi, o'rta asrlarda yashagan ayollarning oila-nikoh, meros, oldi-sotti shartnomalaridagi ishtiroki, O'rta Osiyo xonliklari, xususan Qo'qon xonligiga tegishli ayollarga oid vaqf, vasiqa, *iqroornoma* (yoki *iqror xati*), *vakolatnoma* (yoki *vakolat xati*) kabi tarixiy hujjatlar tuzilishi, ularni rasmiylashtirish tartiblari, o'zbek davlatchiligi tarixida sudya(qozi)lar faoliyati, ularning oil-nikoh masalalariga yondashuvlari bilan bog'liq tarixiy jarayonlarga doir birlamchi arxiv hujjatlariga tegishli ilmiy yangiliklarda "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi"ning tarix bo'limiga Qo'qon xonligiga oid eksponat va materiallar ko'rgazmasini qayta shakllantirishda ilmiy axborot sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 22-dekabrda 04-05/4841-son ma'lumotnomasi). Natijada, qozilik institutining muhim qismi bo'lgan qozilik mahkamasi faoliyati tarixi, o'rta asrlarda yashagan ayollarning oila-nikoh, meros, oldi-sotti shartnomalaridagi ishtirokiga oid ma'lumotlar faktik materiallar bilan boyitilgan;

O'ZR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limida saqlanayotgan majmua' ul-vasoyiq ("Vasiqalar to'plami"), jung asarlar, fatvo to'plamlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi va Buxoro davlat Ark muzeyi qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan ayrim nodir qozilik hujjatlarida aks etgan materiallaridan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son qaroriga muvofiq "Jahon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq qilish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ'ib qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 2-yo'nalishiga oid "Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari" 18-band "Ajdodlar merosi - ibrat va tarbiya manbai" mavzusida amalga oshirilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi 16-fevral 2023 yil №08-17/149-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Majmua' ul-vasoyiq" ("Vasiqalar to'plami"), jung asarlar, fatvo to'plamlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi va Buxoro davlat Ark muzeyi qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan ayrim nodir qozilik hujjatlarida aks etgan ma'lumotlar doirasida yangi ma'lumotlar ommalashtirilgan;

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining "Qo'lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar" bo'limida saqlanayotgan XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid Turkistonda nashr qilingan ayrim bosma asarlar, gazeta va jurnallar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilganligi, shuningdek, "Kitobxonlik haftaligi" doirasi o'tkazilgan "Milliy va dini qadriyatlarda gender masalalari (qo'lyozma manbalar, tarixiy va badiiy asarlar asosida)" mavzusidagi davra suhbatida (2021 yil 6 aprel)

“Qo‘lyozma va tarixiy (badiiy) asarlarda ayol timsoli”, “Yangi O‘zbekiston yangicha dunyoqarash” (2022- yil 20- aprel) nomli davra suhbatida “Alisher Navoiy Nomidagi Milliy kutubxonaning nodir nashrlar bo‘limida saqlanayotgan ayollar masalasiga oid manbalar” nomli ma‘ruzalarda foydalanilgan (Alisher Navoiy Nomidagi Milliy kutubxonaning 2022-yil 29-noyabr 01-20/1483-son ma‘lumotnomasi). Natijada, XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid Turkistonda nashr qilingan ayrim bosma asarlar, gazeta va jurnallar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilib, ulardan “Kitobxonlik haftaligi”, tkazilgan “Milliy va dini qadriyatlarda gender masalalari (qo‘lyozma manbalar, tarixiy va badiiy asarlar asosida)” “Qo‘lyozma va tarixiy (badiiy) asarlarda ayol timsoli”, “Yangi O‘zbekiston yangicha dunyoqarash” (2022- yil 20- aprel) nomli davra suhbatlari o‘tkazishda foydalanilgan;

"O‘zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan “Nafosatnoma” “Mavzu”, “Iptido” ko‘rsatuvlari ssenariysini yozishda, tadqiqotda ilgari surilgan To‘maris, samarqandlik Fotima binti Muhammad, Turkon og‘o, Saroymulk xonim kabi o‘nga yaqin ayollarning o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni, XVI-XX asr boshlariga oid qo‘lyozma minbalar va arxiv hujjatlarida aks etgan oila-nikoh munosabatlari, vaqf mulklarini ta‘sis etgan va uni boshqargan (*mutavali*) ayoolar, o‘rta asrlarda yashagan ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda tutgan o‘rniga doir materiallardan foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 24-fevral 06-28-309-son ma‘lumotnomasi). Natijada, “Nafosatnoma”, “Mavzu”, “Iptido” nomli dasturlar ishonarli manbalar bilan boyishiga erishilgan;

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedogogika institute tomonidan O.Qo‘ziboyeva rahbarlik qilgan XT-Φ2-001 “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida geografiya fanlarini o‘qitishda milliy istiqloq goyasini o‘quvchilar ongiga singdirish” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanildi. Tadqiqot natijalaridan loyiha doirasida “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida geografiya fanlarini o‘qitishda milliy istiqloq goyasini o‘quvchilar ongiga singdirish” o‘quv uslubiy qo‘llanmani tarixiy qadriyatlar, urf-odatlarimizda onaga bo‘lgan munosabat, qizlar tarbiyasi, oila qadriyatlar kabi masalalarni yoritib berishda foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedogogika institutining 2023-yil 4 dekabr 1310/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida tayorlangan o‘quv uslubiy qo‘llanma tarixiy qadriyatlar, urf-odatlarimizda onaga bo‘lgan munosabat, qizlar tarbiyasi, oila qadriyatlariga oid ma‘lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 20 ta ilmiy konferensiyada jumladan, 6 ta xalqaro hamda 14 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop qilingan. Shulardan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop qilish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 11 ta maqola, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, besh bob, 18 paragraf, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 259 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan ayollarning umumiy obrazi (tarixiy ekskurs)”** deb nomlangan birinchi bobida ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularga nisbatan qo‘llanilgan murojaat so‘zlar, tarixiy atamalar, kiyim-boshlari, oila-nikohdagi o‘rni arxeologik hamda yozma manbalarga tayanilgan holda ochib berilgan. XVI-XX asr boshlarigacha bo‘lan jarayonlarini ko‘rsatib berishda mazkur materiallar qiyosiy tahlilni amalga oshirish imkonini bergan.

Matriarxat insoniyat tarixining ma‘lum bir bosqichida, ibtidoiy podaning dastlabki davridan keyin paydo bo‘lgan va uyushgan ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining ilk davri hisoblanadi. Shu bilan birga bu davrda moddiy madaniyat, iqtisodiyot, nikoh va ijtimoiy munosabatlar, ma‘naviy madaniyatning ilk arxaik ko‘rinishlari ham shakllangan²⁰. Matriarxat davrida ovchilik bilan erkaklar, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik bilan esa ayollar shug‘ullangan va ular paleolit davridan boshlab ip yigirish, to‘qish texnologiyalarini yaratganlar²¹. Matriarxal madaniyatda oliy xudo odatda ona ma‘buda obrazi bo‘lib, uning asosiy vazifasi dunyo va barcha tirik mavjudotlarni yaratishda ishtirok etish, hosildorlikka homiylik qilish, qonunlar hamda yashirin bilimlarni o‘z ichiga olgan ijodiy vazifalarni bajarishdan iborat edi²². Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, u ibtidoiy odamlarning eng muqaddasi bo‘lib, ona tasviri uchta asosiy – nasl berish (tug‘ish), oziq-ovqat yigish, vaqtni o‘zgartirish (o‘lim va qayta tug‘ilish) jihatlari bilan muqaddaslashtirishga undagan²³. Akademik A.Asqarovni ta’kidlashicha, yuqori paleolit davrida (mil. avv. 40-12 mingyilliklar) ilk jamoa, jamiyatning dastlabki kurtagi matriarxat, ya’ni ona urug‘i, urug‘chilik jamoasi tarkib topgan, onalarga jamoani sardori, urug‘ni davom ettiruvchi iloh sifatida qarash paydo bo‘lgan. Shuning uchun bu davrda birinchi bor onalarning siymolarini chizish, haykallarini yasash boshlanib, ibtidoiy san’at kashf etilgan²⁴. Xususan, Sarazm I madaniyatiga oid urug‘-oila jamoasiga tegishli xilxona topilgan va uning markaziy qabri ayolga tegishli bo‘lib, undan naqshinkor sopol parchalari, mis oyna, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, turli toshlardan yasalgan munchoqlar topilgan²⁵.

Qadimgi arxeologik topilmalar va ayrim tarixiy asarlarda kampir bilan bog‘liq

²⁰Косвен М.О. Матриархат. История проблемы. Москва. 1948. – С.3.

²¹Сулейманов Р.Х. Истоки женского культа в Средней Азии // Ўзбекистоннинг энг янги тарихини урганиш назарий методологик асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Карши. 2016. –Б. 43-48.

²²Ворошилова О. Н. Образ женщины в религиях // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 23. – С. 33–37. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/770428.htm>. (murojaat qilingan sana 10.01.2018).

²³Горшунова О.В. Женское божество в системе религиозно-мировоззренческих представлений народов Средней Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Москва. 2007. – С.19.

²⁴Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши. Тошкент. Ўзбекистон. 2015. – Б. 78.

²⁵Ko‘rsatilgan manba. 2015. – Б. 141.

ma'lumotlar uchraydi. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan qadimgi Xorazm xarobalaridan biri – Qo'yqirilgan qal'asi (mil.av. III – II asr)dan topilgan terrokada haykalchasida yoshi ulug', yuzlariga ajin tushgan kampir nihoyatda ishonarli tarzda tasvirlangan²⁶. Turkiy xalqlar hayotida kampir bilan bog'liq urf-odatlar muhim o'rin tutgan²⁷. Shuningdek, qadimgi Sharqda keksa yoshli ayollar donolik, mardlik, dadillik ramzi, hukmdorlarni adolatga da'vat etuvchi ijtimoiy shaxs sifatida ham talqin etilgan²⁸. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy (1141 – 1209)ning “Maxzan ul-asror”²⁹ asarida keltirilgan “Sulton Sanjar va kampir” hikoyasi mumtoz adabiyotda mashhurdir³⁰. Husayn Voiz Koshifiy (1440 – 1505) ham “aksar podshohlar bir marta adolat qilish bilan mazlumning dodiga yetib, dunyo va oxirat najotini topganlarini” alohida ta'kidlaydi³¹. “Axloqi Muhsiniy” asarida keksa kampirlar bilan bog'liq voqealarni “Adolat bayoni” hamda “Fursatni g'animat bilish” fasllarida keltiradi³². Keksalar yoki miskin bevalar tasavvuf adabiyotida ilohiy donolikdan ulushdor kishilar sifatida ham tasvirlanadi³³.

Manbalarda davr, sharoit, ijtimoiy-siyosiy vaziyat nuqtai-nazaridan kelib chiqib, siyosat maydoniga kirib qolgan ayollarning nomlari ham uchraydi. Jumladan, turkiyalik tadqiqotchi Bahria Uchoqning tadqiqotlarida Dehlida hukmronlik qilgan musulmon turkiy sulola vakillaridan biri³⁴ Nasir ad-Dinning qizi *Roziya Sultonni* rasman taxt vorisi etib tayinlanganligiga ishorat qilinadi³⁵.

Xorazmda hukmronlik qilgan Qutludurning³⁶ rafiqasi *To'rabek xotun* ham o'zining taqvodorligi, odob, axloqi va olijanoblighi, ulusparvarligi bilan tarixda mashhur bo'lgan. U Hindistonga faqih Amir Abdullohni elchi qilib jo'natib, u orqali hukmdorga ko'plab sovg'a-salomlar ham yuboradi va Xorazmda katta masjid bunyod

²⁶Пугаченкова Г.А., Ремпель Р.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. Ташкент. 1958. – С. 28.

²⁷Алпомиш. Ўзбек халқ қахрамонлик достони. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи: М. Зарифов. Тошкент. 1998. – Б.166; Норбўтаев П. Халқ удумлари «камфир ўлди» ва ит ириллар». Норбўтаев П. <http://n.ziyouz.com> (murojaat qilingan sana 5.01.2017).

Алпомиш. Ўзбек халқ қахрамонлик достони. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи: М. Зарифов. – Б.166.

²⁸Bu haqida batafsil qarang: Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. Москва. 1965. – С. 283 – 368; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн биринчи том. Хамса. Сади Искандарий. Тошкент. 1993. – Б.130 – 135.

²⁹Ozarbayjonlik shoir Nizomiy Ganjaviyning ijodi Alisher Navoiyga ham katta ta'sir ko'rsatgan va uning “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy” kabi asarlari Nizomiy Ganjaviy asarlaridan ilhomlanib yozilgan. Qarang: Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. Москва. 1965. – С.286 – 386.

³⁰Ushbu hikoyaga XVI asrning eng yaxshi rassomlaridan biri – buxorolik Mahmud Muzahhib tomonidan miniatyura ishlangan. Qarang: Пугаченкова Г.А., Ремпель Р.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – С.97.

³¹Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи мухсиний ёхуд яхши хулқлар.Нашрга тайёрловчилар: Аминов М, Ҳасанов Ф. Тошкент. 2011. – Б.166.

³²Ко'rsatilgan manba. – Б.165 – 166, 170, 284.

³³Аннемарие Шиммел. Жонон менинг жонимда. Ислом оламида хотин-қизлар сиймоси. Немис тилидан Йўлдош Парда таржимаси. Тошкент. 1995. – Б.16.

³⁴Ushbu sulola vakillari tarixda muizziylar sulolasi yoki “Qul sultonlar” nomi bilan tilga olinadi. Ular Shimoliy Hindistonda 1206 – 1290 yillarda hukmronlik qilgan. Qarang: Босворт К.Э. Мусулмон сулолалари (йилнома ва шажаралар бўйича маълумотнома). Таржимонлар Асрор Самад ва О. Шарафуддинов. Тошкент. 2007. – Б.137 – 139.

³⁵Бахрие Учак. Женщины правительницы в мусульманских государствах. Перевод с турецкого З.М. Буниятова. Москва. 1982. – С.13 – 14.

³⁶Qutludum (yoki Qutlug' Temur) 1321 yilda Oltin O'rda xoni O'zbek (1312 – 1340) tomonidan Xorazmga noib etib tayinlangan.

ettiradi³⁷. Shu bilan birga, *To'rabek xotun* arab sayyohi Ibn Battuta Xorazmga kelganda uning sharafiga ziyofat uyushtiradi³⁸.

Ma'lumki, qon-qarindoshlik bilan bog'liq terminlar kelib chiqish tarixiga ko'ra qadimiy bo'lib, ular turkiy xalqlarda qabila-urug'chilik munosabatlari shakllanayotgan dastlabki bosqich davrini ifoda etuvchi atamalar sifatida yaratila boshlagan³⁹. Ayollarga nisbatan murojaat so'zlar qarindoshlik darajalari (nasabi) hamda ijtimoiy ahvoli, bajargan vazifasi (hasabiga)⁴⁰ga qarab qo'llanilgan. Markaziy Osiyo xalqlari urf-odat va an'analariga muvofiq ayolning oila va jamiyatdagi mavqei asosan yoshi bilan bog'liq bo'lgan. Chunki ayol ulg'aygan sari oiladagi mavqei ham oshib borgan va uning farzandli bo'lishi esa bu holatning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan⁴¹. Qadimdan Sharqda ayol, eng avvalo, ona sifatida ulug'langan, shu bois ayollar ko'p hollarda sabr-bardosh va mehr-muhabbatning timsoli sifatida gavdalangan. Shuningdek, ular hayotda opa-singil, turmush o'rtoq, farzand qatorida ham ko'rilgan. Manbalarda qayd qilinishicha, turkiy xalqlarda ayollarga til tekkizish yoki ularni haqorat qilish katta ayb sanalib, ba'zan gunoh ham hisoblangan⁴².

Ona (𐰽𐰺) "Avesto"da "Matri" deyilib, "tarbiyalovchi" ma'nosida izohlangan⁴³. O'g'uz tilida 𐰽𐰺 (aba) qarluq turkmanlarida esa 𐰽𐰺 (apa) deyilgan⁴⁴. *Bonu* so'zi hurmat ma'nosida ayollar ismi yoniga qo'shib ishlatilgan⁴⁵. "Avesto"da ham ushbu so'z ramziy mohiyatga ega ekanligi ta'kidlanib, "charog'on, yorug'lik" ma'nosini anglatgan⁴⁶. Temuriylar davrida yuqori tabaqaga mansub xotin-qizlar haqiqiy ismlari bilan tilga olinmay, boshqa jumlar bilan atalgan. Bunga *xonum*, *begim*, *og'o/og'a*, *oqa/aka*, *bekach* yoki ikkinchi ism bilan nomlanishlarini kuzatish mumkin⁴⁷.

Ayollarning kiyimlari qadimgi rasm va haykalchalarda ham ancha aniq tarzda ta'svirlanadi. Ularning ko'ylaklari ko'pincha burmali, keng, qattiq yo harir ipak matolardan tikilgan hamda kashtalar bilan bezatilgan. Ustki kiyim sifatida yengsiz kamzul (nimcha), kostyumga o'xshagan kardigan kiygan. Jumladan, Mahmud

³⁷Ибн Баттута. Саёҳатнома. Тухфат ан-нуззор фи ғаройиб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор. Масъул муҳаррир ва муқаддима муаллифи Н. Иброҳимов. Тошкент. 2012. – Б.214.

³⁸Ibn Battuta To'rabek xotunni eski libos kiygan va boshigga chodra tashlab olgan kamtar va kamsuqum ayol sifatida tasvirlaydi. Qarang: Ibn Battuta. Sa'xhatnoma. – B.363.

³⁹Жалилова Н. Ўзбек тилида қон-қариндошлик терминларининг пайдо бўлиш даврига кўра типологияси. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKCLAD) Cilt 1 Sayı 1, 2017 s. 1–14.* <https://dergipark.org.tr/tr/> (murojaat qilingan sana 5.01.2018).

"Avesto" bo'yicha qarindoshlikning to'qqiz bosqichi qayd etilgan: 1) ota-onalar; 2) farzandlar; 3) aka-uka va opa-singillar; 4) bobo va buvi; 5) nevaralar; 6) tog'alar va xolalar; 7) amakivachchalar va amnavachchalar; 8) jiyanlar; 9) aka-uka va opa-singil nevaralari. Zardusht ta'limotida qarindoshlik munosabatlari otalik, merosxo'rlik, o'zaro huquq va majburiyatlar, qonunlarni buzganlikdagi javobgarlik masalalarini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qarang: Ртвладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Тошкент. 2001. – Б.229.

⁴⁰حسب - yuqori tabaqaga mansublik, nomlanish; asl nasab, qadr-qimmat. *Персидско-Русский словарь. Под редакцией Ю.А. Рубинчика. Москва.1983. – С.503.*

⁴¹Bu yerda asosiy holat e'tiborga olindi, farzand ko'rmagan ayollar ham o'ziga xos mavqega ega bo'lganligi va tarixiy hujjatlar buni tasdiqlashini eslatib o'tish joiz.

⁴²Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи: У. Уватов. Биринчи китоб. Тошкент. 1992. – Б.258 – 259.

⁴³Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. Тошкент. 2001. – Б.62.

⁴⁴Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Б.113.

⁴⁵Bonu – yuqori tabaqalarga, zodagonlarga mansub ayollar unvoni; hurmat yuzasidan ayollar ismiga qo'shib ishlatiladi. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З.М. Маъруфов таҳрири остида. I-том. – Б.130.

⁴⁶Ҳомидов Ҳ. "Авесто" файзлари. – Б.62.

⁴⁷Нафасов Т. Имена женщин темуридского происхождения // Тезисы международной научной конференции Амир Темур и его место в мировой истории. Ташкент. 1996. – С.103.

Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy ayollar kiyadigan nimcha (ارتغ) *artig* haqida ma'lumot beradi⁴⁸.

"Avesto" Markaziy Osiyo xalklarining diniy, huquqiy, axloqiy, ijtimoiy tarixini o'zida aks ettiradi. Unda mulkiy, oila-nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy normalar, jinoyat va jazo, sud va sud amaliyoti masalalari to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, oila erki, xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni, onaning xonadondagi mavqei masalalari turli o'rinlarda, har xil munosabatlar bilan maxsus qayd etilib, izohlangan⁴⁹. Ayniqsa, ayol kishining shaxsiy mulkka ega bo'lishi, undan xayriya maqsadlarida foydalanishi, mustaqil ravishda da'vogar yoki guvoh sifatida ko'rsatmalar bera olishi kabi jihatlar zardushtiylikda ayollar emansipatsiyasining⁵⁰ ayrim elementlari mavjud bo'lganligini ko'rsatadi⁵¹.

"Oila-nikoh munosabatlariga oid manbalar tahlili (XVI-XX asr boshlari misolida)" deb nomlanga ikkinchi bobda ko'rib chiqilayotgan masalalarning tarixshunoslik, manbashunoslik tahlili amalga oshirilgan.

Buxoro xonligida yashab, faoliyat yuritgan ayollar masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni nisbatan kengroq o'rganilgan ilmiy ishlar sirasiga kiritish mumkin. Bu ishlarda, asosan, ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda tutgan o'rni va rolini ko'rsatib berishga e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati sovet davrida amalga oshirilgan bo'lib, ularda keltirilgan faktik materiallar o'z davri mafkuraviy tizimi natijasida tahlil etilgan hamda masalaga o'zbek davlatchiligi, gender munosabatlari nuqtai nazaridan yondashilmaganligi kuzatiladi. Bunday ishlar qatoriga Sh. Yusupov, G.Ostonova, R.G. Mukminova, R. Saidahmedova, T. Fayziev kabi olimlarni ishlarini kiritish mumkin⁵².

Xiva xonligi (1516 -1920 y.) hududida yashagan ayollarning hayoti, oila-nikoh munosabatlaridagi ishtiroki masalalarini deyarli o'rganilmagan tadqiqot mavzulari qatoriga kiritish mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu masalaning ayrim jihatlari ba'zi tadqiqotchilarning ishlari va maqolalarida o'z aksini topgan. Ular davriy jihatdan XIX asr oxiri – XX asr boshlari bilan chegaralanadi. Jumladan, A. Boltaev, F. Ernazarov,

⁴⁸Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. Таржима ва нашрга тайёрловчи: Муталибоев С. Тошкент. 1960. – Б.123.

⁴⁹Ҳамидов Х. "Авесто" файзлари. – Б.58.

⁵⁰Emansipatsiya (lotincha emancipatio – o'g'ilni otalik hokimiyatidan ozod qilish). Sotsiologiyada – zulm, qaramlik, xurofotdan xalos bo'lish, ayollar masalasida: ayollarni ozod qilish, ularni ijtimoiy, mehnat va oilaviy hayotda teng huquqlarini ta'minlash; ayollar va erkaklar uchun teng huquqlarga intilish; fuqarolik qonunchiligida: voyaga yetmaganlarni ozod qilish. <http://www.owl.ru/gender/186.htm>; <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/emansipatsiya-uz/> (murojaat qilingan sana 9.01.2019).

⁵¹Ртвладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Тошкент. 2001. – Б.189.

⁵²Юсупов Ш. Положение женщин в Восточной Бухаре в конце XIX и начале XX в... – С.45 – 50; Астанова Г.О положение женщин в Бухарском ханстве в конце XIX начале XXв... – С.125 – 132; Ushbu muallif. О социально-экономическим и правовом положении женщин в Бухарском ханстве (по материалам архивных документов нарративных источников XIX – XXв)... – С.46 – 62; Мукминова Р.Г. Истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам "Вақф-наме"... Mehr Sulton xonimning vaqfnomasi xususida dastlab Fitrat ayrim fikrlarni bildirib o'tgan. Qarang: Фитрат Р.Р. Три документа по аграрному вопросу в Средней Азии // Записки Института востоковедения АН СССР. Вып.2. Ленинград. 1933. – С.69 – 73. Yana qarang: Султонов Ў.А. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислохотлар ва муаммолар (XVI – XX аср бошларига оид тарихий хужжатлар асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент. 2016. – 23; Саидахмедова Р. "Воспоминания" С. Айни как исторический источник о положении женщин в Бухарском эмирате // Материалы по истории и истории культуры Таджикистана. Душанбе. 1981. – С.243 – 251; Файзиев Т. Бухоро хонлигида кул савдоси. Тошкент. 1970; Мазкур асарнинг тўлдирилган қайта нашри. Бухоро феодал жамиятида куллардан фойдаланишга доир хужжатлар (XIX аср). Тошкент. 1990.

N.T. Polvonov, Yu.M. Rahmonovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda masalani u yoki bu jihatlari aks etgan⁵³.

Qo‘qon xonligi (1710 – 1876 yillar) ayollari masalasi ham nisbatan kengroq o‘rganilgan va buni Qo‘qon adabiy muhitida faoliyat yuritgan shoira ayollarning ko‘pligi bilan izohlash mumkin. A. Qayumov, M. Qodirova, A. Erkinovning ishilar shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi⁵⁴. Shuningdek, Buxoro amiri Nasrulloxon (1827 – 1860)ning Qo‘qon xonligiga harbiy yurish qilishi uchun “turtki” bergan Muhammadalixon (1822 – 1842)ning kanizagi *Xonposhsho* (yoki *Poshshooyim*) bilan bog‘liq voqealar ham ayrim tadqiqotchilar e‘tiboridan chetda qolmagan⁵⁵.

Oila-nikoh munosabatlariga oid manbalar qatoriga O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Maj‘mu‘ al-vasoyiq”, “jung” asarlar va qozilik xujjatlarini kiritish mumkin⁵⁶. Junglarga ilova qilingan hujjatlarning asl nusxa va *formulyarlarida* o‘rta asrlarga xos hujjat yuritish tartibi aks etgan. Hujjatlarning o‘ziga xos jihatlari esa ko‘rilayotgan masalalarga qarab aniqlash mumkin. Har ikki to‘plam – majmua‘ al-vasoyiq va Junglarga bir-birini to‘ldirish xususiyatiga ega ekanini ham alohida ta‘kidlash lozim. Oila-nikoh munosabatlariga oid qo‘lyozma asarlar va qozilik hujjatlari til xususiyatlariga ko‘ra asosan fors(tojik), qisman arab tillarida, shuningdek, turkiy (eski o‘zbek)da bitilgan⁵⁷.

⁵³Boltaev A. Xorazm tarixiga oid materiallar. O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar bo‘limi. №9320. Asar 1950 yilda eski o‘zbek tilida yozilgan. *خوارزم تاريخيكا ايد ماتير يالار*; *بالتايف ا*; Эрناзаров Ф. XIX аср охири – XX аср бошларида Хоразм воҳаси аёлларининг ижодий фаолияти. Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (илмий-амалий конференция маърузалари, 23 декабрь 2004). – Б.48 – 54; Полвонов Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хоразм воҳасидаги аёллар миқдорининг демографик таҳлили. – Б.186 – 189; Шу муаллиф: Хоразм воҳасидаги аёллар: 1897 ва 1910 йиллардаги аҳоли рўйхати асосидаги миқдорий таҳлил // International Journal of Central Asian Studies. Сеул. 2010. – Б. 213-224; Раҳмонова Ю.М. Хива хонлиги аёлларининг кундалик ҳаёти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Б.262 – 268; Шу муаллиф: Мозий этикодрарида аёл зоти илоҳалари (Хоразм воҳаси мисолида). Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива. 2018. №4. – Б.85 – 88.

⁵⁴Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. Тошкент. 1961; Шу муаллиф: Қўқон адабий муҳити. 7-жилд, 1-китоб. Тошкент. 2010; Қодирова М. Увайсий шеърятдан. Тошкент. 1980; Шу муаллиф: Давр Нодираси (Нодиранинг ҳаёти ва ижоди). Тошкент. 1991; Aftandil Erkinov. Livres manuscrits et milieu féminin en Asie Centrale: contenu et audience des recueils poétiques copiés par des femmes à Kokand du XIXe au début du XXe siècle // Istituto per l’orientalismo – orientalisches institut der martin-luther-universität halle-wittenberg journal for balkan, eastern mediterranean, anatolian, caucasian, middle eastern, Iranian and Central Asian studies XII (2014) // lecteurs et copistes dans les traditions manuscrites Iraniennes, Indiennes et centrasiatiques – scribes and readers in Iranian, Indian and Central Asian manuscript traditions Textes réunis par. Edited by Nalini Balbir – Maria Szuppe. –P.393 – 416.

⁵⁵Хуршут Э. Амир Умархоннинг канизи. Шарқ Юлдузи. 1989. №9. <https://ziyouz.uz> (murojaat qilingan sana 5.01.2017); Воҳидов Ш. Амир Насруллоҳнинг Қўқон хонлигига 1842 йилги юриши ҳақида (сабаб, баҳона ва оқибатлар) // Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Фарғона. 2009. – Б.174 – 183; Бобожонов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религи. Токио-Ташкент. 2010. – С.580 – 592; Каримов Н. Абдулла Қодирий ва Амир Умархоннинг канизи // Водийнома. №2 (4). Андижон. 2017. – Б.82 – 90. Шунигдек, Р. Набиев ва Ҳ. Бобобековлар ҳам мазкур масалага тўхталиб ўтганлар. Қаранг: Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодальное хозяйство Худояр-хана). Ташкент. Фан. 1973; Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. Тошкент. Фан. 1996.

⁵⁶O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar bo‘limi. №1386, №10989, №2393, №8887.

⁵⁷O‘rta Osiyoga oid qo‘lyozma manba va qozilik hujjatlarining til xususiyatlari bo‘yicha quyidagi tadqiqotlarda batafsil ma‘lumotlar berilgan. Qarang: Фрейман А.А. Артикль в Харезмийском языке. Советское востоковедение V. Москва. 1948. – С.191–197; Бергельс Е.Э. Литература на персидском языке в Средней Азии. Советское востоковедение V. – С.199–228; Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира XII–XIII вв. Москва. 1963. – С.3–5; Bregel Yu. The Sarts in the Khante of Khiva // Journal of Asian History. Volume 12. No2. 1978. – P.149; Мукминова Р.Г. Социальная дифференция населения городов Узбекистана в XV–XVI вв. Ташкент. 1985. – С.11; Тошев Н. О языке и некоторых терминах хивинских юридических актов // Исторические исследования о формировании и изменении мусульманских общин в Средней Азии. – Киото, 2006. – С.108–116; Содиков Қ, Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. Тошкент. 2010; Султонов Ў.А. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислохотлар ва муаммолар (XVI–XX аср бошларига оид тарихий хужжатлар асосида). Тарих фанлари доктори (DSe) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Б.63–64.

O'zbekiston milliy arxivida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining devon xujjatlari saqlanadi. Xususan, №1729 raqamli hujjatlar jildida qozi devonxona (kanselyariya)sida tasdiqlangan maxzar (محضر)⁵⁸ va rivoyat (رواية)lar jamlangan bo'lib, ularning soni 108 tani tashkil qiladi⁵⁹. Bu hujjatlar imkon qadar sinchiklab ko'rib chiqilganda ularning 7 tasi taloqqa, 2 tasi iddaga, 1 tasi taloq talab qilish (*xulu*)ga, 2 tasi *mahrga*, 2 tasi nikoh (nikoh hujjati)ga, 2 tasi vakil masalasiga bog'liqligi aniqlandi. Ushbu fondagi hujjatlarning katta qismini oilaviy nizolar (meros, ko'chmas mulklar, ularni ijaraga berish kabi)ga doir hujjatlar tashkil qiladi. Bundan tashqari tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, voyaga yetmagan qizlarni o'ldirib qo'yish va *diya* (turkcha – *diyeyet*, forsha – *diye*, *xun*)⁶⁰ puli talab qilish, nikoh uchun maxsus ruxsatnoma olish, ayollarga *ta'zir* jazosini berish kabi qiziqarli va nodir masalalar ham o'z aksini topgan.

№582 yig'ma jildda 50 dan ortiq hujjatlar bo'lib, ular turli masalalar bo'yicha yig'ilgan rivoyatlar to'plamidan iborat. Ushbu to'plamda idda, voyaga yetmagan qizning nikohi (1 ta), voyaga yetgan qizni otasi bilan yashashi masalasi (1 ta), kufu (tenglik) to'g'risidagi hujjat (1 ta), *mahrni* kechiktirish to'g'risidagi (2 ta), ayolning g'oyib bo'lishi (1 ta), jihozlar haqida (1 ta)gi masalalar o'z aksini topgan. №586 yig'ma jildga meros bilan bog'liq hujjatlar kiritilgan. Bunda *sag'ir* (etim) qizlar merosiy mulkining sarf-xarajatlari yozilgan "*Sag'ir* daftari" mavjud. Shuningdek, ayol erining merosidan haq olishi, bolalariga vasiy etib tayinlanishi kabi masalalar ham ushbu yig'ma jild hujjatlarida uchraydi.

Ayollarga oid vaqf hujjatlari (I-323 fondi 1, 2-ro'yaxat) asosan Buxoro va Xiv xonliklariga tegishlidir. Bu hujjatlar mulkdor ayollar, vaqf mulkini mustaqil ta'sis etgan ayol (*voqifa*)lar, *mutavalli* ayollar, turli ijtimoiy tabaqalarga mansub ayollar to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi. Tadqiqotga ayrim vaqf hujjatlari jalb etildi (№1246/96, №115, №823, №375, №823/5, №1291 va boshqalar).

Safarnomalar, Rossiya imperiyasi davriga oid arxiv hujjatlari va vaqtli matbuot nashrlari ayollar masalasida izchil xronologik va tizimli tadqiqotlar olib borishga yordam beradi. Bu manbalar, o'z navbatida, tadqiqotchidan masalalarga ehtiyotlik bilan yondashishni ham talab qiladi. Chunki ularda keltirilgan ayrim ma'lumotlarni "to'g'ridan-to'g'ri" qabul qilib bo'lmaydi. Buni xorijlik mualliflarning aksariyati mahalliy til, urf-odat va an'analarni yaxshi bilmaganliklari, ma'lumotlarni keltirayotganda O'rta Osiyodagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olmaganliklari bilan izohlash mumkin⁶¹. Shunday bo'lsa-da, ularning ma'lumotlari O'rta Osiyoda istiqomat qilgan turli ijtimoiy tabaqalarga mansub ayollarning hayotini tarixiy fonda ko'rish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy,**

⁵⁸Mahzar-lug'atda mavjudlik, tinchlik joyi ma'nosini anglatadi. Fiqhiiy adabiyotlarda qozi huzurida taraflar va ularning guvohlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va dalillar yozilgan hujjat, kitob ma'nosida qo'llaniladi. Qarang: Islam ansiklopedisi. 27. Cild. – S. 398-401. <https://cdn.islamansiklopedisi.org.trhttps://ziyouz.uz> (murojaat qilingan sana 12.01.2019); mahzar-bayonnoma (protokol). Qarang: Бекмирзаев И.И. Мовароуннахрда қозилик хужжатлари: тарихий илдизлар ва таҳлилий ёндашувлар. – Б.119.

⁵⁹Ayrim hujjatlar jildida ko'rsatilgan hujjatlar soni to'g'ri kelmaydi. Aksariyati ko'rsatilgan raqamlar sonidan kam (N.X.).

⁶⁰دية (ديه, خون)- to'kilgan qon uchun to'lov, o'ldirish, qon (xun) haqi. Персидско-русски словарь. Ю.А. Рубинчик. Том- I. – С. 698.

⁶¹Ayrim ishlarda O'rta Osiyo aholisining rus hukumatiga bo'lgan salbiy munosabatiga ruslar tomonidan mahalliy aholi tilini bilmasligi va uni o'rganishga ham harakat qilmasliklari sabab qilib ko'rsatiladi. Qarang: Наливкин В. П. Туземцы раньше и теперь. Очерк. Ташкент. 1913. – С.118.

madaniy hayotdagi ishtiroki” deb nomlanib, unda XVI – XX asr boshlarida O’rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va uning ayollar hayotiga ta’siri, haram va uning o’ziga xos jihatlari, ayollarning iqtisodiy mavqeyi, ta’lim sohasidagi faoliyati o’rganilgan. Xususan, tarixiy manbalarda ba’zi bir voqealar ayollar ishtirokida ochib berilishi bilan xarakterlanadi. Ular jamiyatning turli ijtimoiy tabaqasiga mansub bo’lib, yuqori tabaqa ayollari yetakchi o’rinni egallaydi. Bu ayollar o’z davri siyosiy, ijtimoiy voqealarining faol ishtirokchisi sifatida har xil vazifalarni bajarganliklarini kuzatish mumkin. Ushbu vazifalar ko’p hollarda vaziyatdan kelib chiqib aynan ayollar zimmasiga yuklatilganligini ham alohida ta’kidlash lozim. Shulardan biri hamfikir yoki bir-biriga muxolif bo’lgan siyosiy tomonlarni murosaga keltirish edi. Bu murosa yo’li ayol vositasida oila-nikoh munosabatlarini o’rnatish bo’lib, unga nafaqat O’rta Osiyoda, balki o’ziga xos an’ana sifatida dunyodagi deyarli barcha davlatlarda amal qilingan.

O’rta asrlarda yashagan ayollarning hayoti, faoliyati, yashash tarzi bevosita va bilvosita jamiyatda yuzaga kelgan turli xil ijtimoiy, siyosiy voqealar bilan chambarchas bog’liq edi. Mavjud materiallar tahliliga ko’ra Xiva va Qo’qon xonliklariga nisbatan Buxoro xonligiga oid tarixiy manbalarda ayollarning o’zaro urushlar yoki boshqa siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yaxshiroq yoritiladi. Boshqa sulola vakillariga nisbatan ashtarxoniy hukmdorlar o’rtasida siyosiy manfaatlarini ko’zlab amalga oshirilgan nikoh munosabatlari ko’proq uchraydi. Hattoki bu munosabatlardan ashtarxoniylik hokimiyatni *legitimatsiya* (qonuniylashtirish) qilishda ham foydalanganliklariga guvoh bo’lamiz. Bunga misol qilib ushbu sulola malikalardan biri *Shahrbonu begim* haqidagi qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o’tish o’rinlidir. Bu malika asli xurosonlik *sayidlar*⁶² avlodidan bo’lib, Dinmuhammadxonga nikoh qilingan⁶³.

Xiva xonligida *Mehribonu xonim*, *Chinnijon beka*, *Shukurjon*, *Ulliposho*, *Oyisha begi* kabi malikalar tilga olinadi. Manfaatli nikoh munosabatlari Qo’qon xonligidagi hukmdorlarni ham chetlab o’tmagan. Garchi bu xonlikda boshqa xonliklar (masalan, Buxoro)da bo’lgani kabi davlatni *legitimlashtirishda* ona tomonidan shajarasiga katta ahamiyat qaratilmasa-da, taxt vorislariga imkon qadar xon avlodi yoki katta siyosiy mavqega ega bo’lgan urug’ga mansub ayollar nikoh qilingan. Xususan, aksar holatlarda Qo’qon xonligiga asos solgan minglar urug’idan bo’lgan ayollar bosh malika sifatida yetakchilik qilgan. Ular asosan manbalarda taxt vorisi (yoki taxtga o’tqazilgan) hukmdorlarning birinchi rafiqasi sifatida tilga olinadi⁶⁴. *Faxrinniso (Ming oyim)*, *Oyjon oyim*, *Nodira begim*, *Sharf Nisa oyim*, *Oychuchuk oyim*, *Shamsunniso oyimlarni* keltirish mumkin.

Tarixdan ma’lumki, musulmon dunyosida musulima ayollar yashaydigan joy alohida bo’lib, uyni yoki saroyini bir qismi ularga maxsus ajratilib berilgan. Bu *haram*⁶⁵ yoki “ichkari” deb atalgan⁶⁶. *Haramga* begona odam kirishi qat’iyan

⁶²Sayidlar – payg’ambar Muhammad (s.a.v.)ning jiyani va kuyovi Ali ibn Tolib (r.a.) avlodlari.

⁶³Мухаммад Юсуф Мунший. Муқимханская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А. Семенова. Ташкент. 1956. – С.73.

⁶⁴Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (тарих юлдузлари). Форс-тожик тилидан таржима, таржимон: Ш. Воҳидов. Тошкент. 2010. – Б.89.

⁶⁵حرم – haram xos joy; o’z ahli bo’lmagan kishilar kiritilmaydigan joy; ichkari hovli; xotin; Ka’ba. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П. Иброҳимов С. Тошкент. 1972. – Б.767.

taqiqlangan edi. Hattoki Buxoro xonligida podshohlik *haramidan* chiqqan ayolga ko‘z qirini tashlagan kishi kaltak bilan jazolanardi⁶⁷. Shu bois u yerdagi ichki hayot har doim sirligicha qolgan. Nafaqat xon *haramidagi*, balki oddiy aholi qatlamlariga mansub ayollarning ham “ichkari”dagi hayoti ko‘pchilik uchun qorong‘i bo‘lganligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Bu holat albatta diniy, mahalliy urf-odat va an’analar bilan bog‘lanadi. Xususan, ko‘rib chiqilayotgan davrlarda ayollarning hayoti va faoliyati o‘ziga xos qonun-qoidalar hamda ichki bir madaniyatga asoslanganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Xiva xonligida mavjud bo‘lgan odatlarga ko‘ra xon kiyadigan ayrim kiyimlar, gilam, boshqa narsalarning katta qismi xon *haramida* yashovchi ayollarning qo‘li bilan tayyorlangan. Shuningdek, ular o‘zlari uchun kerak bo‘ladigan va kundalik hayotda foydalanadigan ba’zi bir buyumlarni ham tayyorlagan degan fikrni ilgari surish mumkin. Chunki Buxoroda amirning *haramidagi* ayollar nafaqat amirga, balki o‘zlariga ham kiyim tikkan. Qo‘qon xonligiga oid manbalarda bu haqda ma’lumotlar uchramaydi. Lekin saroy ehtiyojlari uchun buyumlarni tikishga ayollar hasharga chaqirilganligi to‘g‘risidagi bitta hujjat Qo‘qon xonlari arxivida saqlanadi⁶⁸. Bu hujjatda hasharga kelgan ayollar nima tikkanligi aniq aytilmagan. Shu bois ular to‘y yoki biron bir tantana yuzasidan ko‘rpa-to‘shak yoki kiyim-kechak tikkan degan taxminni ilgari surish mumkin.

Haram hayoti o‘ziga xos tartib-qoidalarga asoslangan va ko‘pincha xonning onasi tomonidan boshqarilgan. Misol uchun Buxoro saroyidagi *haram* Amir Nasrulloning onasi hamda buvisi *Hakim oyim* nazorati ostida bo‘lgan⁶⁹. Bu nazorat doirasi qanday masalalarni qamrab olganligi ma’lumotlarda aniq keltirilmaydi. Lekin ular bola tarbiyasidan tortib, *haram* ehtiyojlari uchun sarflanadigan oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak, zargarlik buyumlari, *haramni kanizaklar* bilan ta’minlash kabi masalalarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa kerak. Shuningdek, *kanizak* va *cho‘rilar* hamda boshqa xizmatkorlarni zimdan kuzatish ham ushbu nazorat doirasi tarkibiga kirgan. Saroyning bosh malikasi o‘zining shaxsiy muhriga ham ega bo‘lganini aytish joiz.

O‘rta Osiyo tarixiga oid aksariyat adabiyot va manbalarda *kanizak* (كنيزك) va *cho‘ri* (چوري) so‘zi yonma-yon, bir xil tartibda qo‘llaniladi (ayrim qozilik hujjatlarida *joriya* (جارية) (*jariyatun*), ko‘plikda *جوار* (*javarin*)⁷⁰ tarzida keltiriladi. Bu esa *kanizak* va *cho‘rilarning* alohida vazifa hamda mavqeylarini aniqlab olishda chalkashliklar tug‘diradi. Xususan, *Kanizak* lug‘aviy jihatdan fors tilidan olingan bo‘lib, lug‘atlarda *kaniz* (كنيز) – xizmatkor, asira ayol, uy xizmatkori; kam hollarda ayol tarzida, *kanizakka* (كنيزك) – yosh xizmatkor ayol, yosh asira ayol tarzida ta’rif beriladi⁷¹. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham *kaniz* – tutqun ayol; *cho‘ri*, *kanizak* – yosh kaniz;

⁶⁶Yuqori yoki o‘rta tabaqaga mansub ayollarga alohida ajratib berilgan joy. Bu joy haram yoki Qo‘qon xonligida ichkari deb atalgan. Qarang: В. Наливкин и М. Наливкина. Очеркъ быта женщины оседлаго туземнаго населения Ферганы. Казан. 1886. – С.24.

⁶⁷Путешествіе въ Бухару лейтенанта Остъ-Индийской компанейской службы Александра Борнса. Второй часть. Переведено по порученне П.В. Голубкова. Москва. 1848. – С.56.

⁶⁸Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. Москва.1968. – С.361.

⁶⁹Путешествие по Средней Азии. Текст приводится по изданию А. Вамбери. Москва. 2003. – С.124.

⁷⁰Joriya-asira; qul ayol; xizmatkor; qiz. Арабско-русский словарь. I-том. Составил проф. Х.К. Баранов. Москва. 1970. – С.155.

⁷¹Персидско-русский словарь. Под редакцией Ю.А. Рубинчик. II-том. Москва. 1983. – С.362–363.

qul xotin, tutqunlikdagi ayol deb keltiriladi⁷². Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da asosan ikki toifaga mansub ayollar haqida ma'lumotlar beradi. Birinchi toifaga kiruvchi ayollar, shubhasiz, malikalar bo'lib, ular o'z mavqei (ko'p hollarda otasining siyosiy, iqtisodiy mavqeiga qarab ham), kelib chiqishiga qarab sanab o'tilgan. Ikkinchi toifa ayollar kanizaklar bo'lib, ular *kanizak*, *g'uma* (غومه) ayrimlari esa *g'unchachi* (غونچاجى) deb ta'kidlab o'tiladi. *G'unchachi* (yoki *g'unjaji*) so'zi L. Budagov lug'atida noz-karashma, joziba⁷³, o'zbek tilining izohli lug'atida esa podsho yoki xonga go'zal qizlarni tanlab *haramga* keltirib beruvchi ayol⁷⁴ tarzida izohlangan. Jumladan, Bobur Husayn Boyqaro (1438–1506)ning xotini *Xadicha begimni* avval Abusaid mirzoning *g'unchachisi* bo'lganligini, keyin u *g'unchachilik* martabasidan *begimlik* martabasiga yetishganligini aytib o'tgan⁷⁵.

Vaqf institutlarining shakllanishiga islomiy tushunchalardan biri "*xayr, ehson*" tushunchasi asos bo'lgan. Shu bilan birgalikda vaqf mulki ayrim yuqori tabaqaga mansub ijtimoiy qatlamlarning xususiy mulklarini "uzoq va beshikast" saqlash vositasi ham edi. Vaqf mulklari muhtojlarga, masjid, madrasa, qabriston (mozor), avliyolar maqbaralariga, diniy tashkilotlarga ayrim shaxslar tomonidan o'z mulklari hisobidan ajratib berilgan. Vaqf qilingan mulk shariy qoidalar va o'z davri hukumdorlarining maxsus *yorliq* hamda farmonlaridan kelib chiqib davlat tomonidan nazorat qilinishi yoki musodara etilishi taqiqlangan⁷⁶. Vaqf ikki turga, ya'ni *avlodiy* (oddiy) va *xayriya* (asosiy) turlarga ajratilar edi⁷⁷. *Avlodiy* vaqf O'rta Osiyoda keng tarqalgan bo'lib⁷⁸, bunda *voqif* (vaqf egasi) o'z mulklarini avlodlariga vaqf qilgan va shartnoma shartlariga asoslangan holda mulk avloddan-avlodga o'tib, ular daromadning bir qismidan foydalangan. *Xayriya vaqf* (yoki *toza vaqf*)⁷⁹ esa "*xolisanolloh, hech qanday manfatlarni*" ko'zlamagan holda qilinib, undan ko'pchilik foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Vaqf hujjatlarida uchraydigan ayollar bilan bog'liq ma'lumotlarni shartli ravishda – ayollar tomonidan ta'sis etilgan vaqf mulklari, vaqf *mutavallisi* ayol bo'lgan vaqfnomalar, ko'plab ijtimoiy sohalarga homiylik qilgan ayollar, ko'chmas mulklar oldi-sottisida bevosita "*ishtirok*" etgan ayollar, vaqf mulklariga chegaradosh bo'lgan yerlarning egasi bo'lgan mulkdor ayollar, vaqf daromadlari evaziga ijtimoiy himoyaga olingan ayollar kabi qismlarga ajratish mumkin.

O'rta Osiyoda o'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktablari esa o'qituvchi ayollarning uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan⁸⁰. Qizlarni o'qitgan ayollar Samarqandda *bibi xalifa*, Xorazmda *xalifa/xolpa*, Buxoroda *oy(i) mullo*, Qo'qon hamda Toshkentda *otinoyi* yoki *otinbibi*, Xuroson va Eronda *atu*, tatarlarda *abistay* deb atalganligini kuzatish

⁷²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. З.М. Маъруфов таҳрири остида. Москва. 1981. – Б.367; II том. – Б.387.

⁷³Л. Будагов. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. Санкт-Петербург. 1869. – С..

⁷⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. – Б.665.

⁷⁵Ко'rsatilgan manba. – Б.132.

⁷⁶Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. Тошкент. 1965. – Б.30–31.

⁷⁷Жўраева Ф. Вақф нима? Шарқшунослик. Тошкент. 1991. №2. – Б.38.

⁷⁸Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов. М.Л. 1954. – Б.16.

⁷⁹Жўраева Ф. Шарқшунослик институти вақфномалари. Шарқшунослик. 1997. №8. – Б.174.

⁸⁰Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. (1865 – 1924 годы). – С.36.

mumkin⁸¹.

Qizlarga o'qish va yozish, hisob-kitob, uy-ro'zg'or ishlari, jumladan, paxtani chigitdan ajratish, ip yigirish, bichish-tikish, muomala madaniyati o'rgatilgan. Odatda, maktabga o'g'il-qizlar 6 yoshdan berilgan, ayrim hollarda esa bu 8-9 yoshni tashkil qilgan. Farg'ona vodiysida qizlar qaysi toifaga mansub bo'lmasin, imkon qadar boshlang'ich maktablarga berilib, Qur'onni o'qish, kitoblarni farqlay olish, turkiy tilda (eski o'zbek yozuvida) yoza olishni o'rganishgan⁸². Qishloq joylariga nisbatan shaharlarda qizlar maktabi ko'pchilikni tashkil qilib, ular XIX asr oxiri – XX asr boshlarida umumiy maktablar sonining 1/4 qismiga to'g'ri kelgan⁸³.

Yuqorida keltirilganidek, ayollar tarixda ilm-fan, diniy muassasalar va beva-bechoralar homiysi sifatida ham iz qoldirgan⁸⁴. Buxoro xonligida ayollar tomonidan ikki yuzga yaqin madrasa, o'nga yaqin maktabxonalarga vaqf mulklari ajratilgan⁸⁵. Shunday ayollardan biri *Podshoh bibi* bo'lib, u xonaqoh, madrasa, tahoratxonalar qurdirgan⁸⁶. Muhammad Said qizi *bibi Xalifa* esa mazkur madrasaga ekinzor yerlar, 2 ta tegirmon, Qulmuhammad dodxoh qizi *Chuchik oyim* bir qancha qishloqlar va yerlarni o'zining nomi bilan ataladigan madrasaga vaqf qilganligini ko'rish mumkin⁸⁷. Shuningdek, madrasalarda ta'lim olayotgan talabalarni bepul ovqatlanishi va turar joy bilan ta'minlash maqsadida alohida hujralar, yerlar ham vaqf qilingan.

To'rtinchi bob **“Oila-nikoh munosabatlarida shariy qoidalar, urf va hujjatlashtirish masalalari”** deb nomlanib, islom huquqining asosiy manbalari, shariy qoidalar, urf, hujjat yuritish tarixi, maxsus formulalar, ayollar tomonidan berilgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi kabi masalalar o'rganilingan. Islom fiqhshunosligida masalalarni yechishda asosan oltita manbaga tayaniladi. Bular: Qur'on, sunnat, ijmo', qiyos, istehson va urf⁸⁸. Fiqhiy asarlarga asoslanib erkaklar uchun nikoh munosabatlarini o'rnatish (yoki nikohi harom qilingan) ta'qiqlangan ayollar sirasiga daslab nasab jihatdan yaqin bo'lgan ya'ni ota-onaning yaqin qarindoshlari (amma, xola, amkini qizlari), ona, buvi, bir tug'ishgan opa-singillar, xotining onasi, o'gay qizi, o'g'lining xotini, nabiralarni kiritish mumkin⁸⁹. Shuningdek, erkak bilan zino qilgan ayolning bolalari, voyaga yetmagan qizlar, iddada o'tirgan ayol, otashparast, botil mazhablarga mansub ayollar, sanamparastlar, mushrik ayollarga uylanish harom qilingan. “Hidoya”ning “Nikohi harom qilingan

⁸¹Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Выпуск 3. Составитель и ответственный редактор С.М. Прозоров. Москва. 2001. – С.77-79. Qizlarni o'qitgan ayollar Xivada *Eltibibi* deb ham nomlangan. Qarang: Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX asr oхири – XX asr бoшлари). Тошкент. 2014. – Б.8.

⁸²Наливкин В. и Наливкина М. Очеркъ быта женщины оседлаго туземнаго населенія Ферганы. Казан. 1886. – С.46.

⁸³Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. (1865 – 1924 годы). Москва. 1960. – С.46.

⁸⁴Bunday homiyliklar asosan vaqf hujjatlari ko'rinishida rasmiylashtirilgan. Bu haqda dissertatsiyaning “Vaqf mulklarini ta'sis etgan va uni boshqargan (mutavalli) ayollar»” deb nomlangan qismida batafsil to'xtab o'tildi.

⁸⁵Ushbu ma'lumotlar muallif rahbarligi ostida amalga oshirilgan “Ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq vaqf hujjatlarini kataloglashtirish (XVI – XX asr boshlari Buxoro xonligi misolida)” nomli loyihasi doirasida o'rganilib taqdim qilindi.

⁸⁶OzR MA. Fond 323, 1-ro'yxat. №117.

⁸⁷ OzR MA. Fond 323, 1- ro'yxat. №45, №40.

⁸⁸Ushbu manbalar haqidagi ma'lumotlarni keltirishda asosan Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniyning “Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari” (qarang:– B. 124-128) hamda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Usulul fiqh” asarlariga tayanildi (qarang:– B. 27,67, 98, 123).

⁸⁹Бурхониддин ал-Марғинович. Ҳидоя. 1-жилд. – Б. 651 – 659; Максудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул-мақсуд ёки Мухтасар ул-виқоянинг ўзбекча шарҳи. . – Б.389-397.

ayollar” faslida bir onadan tug‘ishmagan bo‘lsa ham bir onadan sut emgan ayollar bilan nikoh munosabatini o‘rnatish taqiqlanadi. Bunda “Sizlarni emizgan onalaringiz ham, emakdosh opa-singillaringiz ham harom qilindi” (Niso, 23-oyat) oyatiga va Payg‘ambar (s.a.v)ning hadislariga asoslaniladi⁹⁰. Shunday bo‘lsada istisno tariqasida ushbu masala bilan bog‘liq hujjatlar uchraydi⁹¹.

Nikoh ahdi tuzishda nikohga bosh bo‘ladigan kishilardan biri valiy bo‘lib, bu vazifa ota, bobo yoki aka (asosan ota avlod) tomonidan bajarilgan⁹². Ayrim hollarda qozi, imom, hokim, ona, begona kishilar ham valiy bo‘lishi mumkin edi. Turmishga chiqayotgan qiz va ayollarga valiy tayinlash (yoki bo‘lish) shartligi to‘g‘risida hanafiy ulomolari o‘rtasida ixtiloflar mavjud. Jumladan, bir rivoyatda Abu Hanifa va Abu Yusuf (731-798) oqila, bolig‘(balog‘atga yetgan) va hur ayolning nikohi hoh u qiz bo‘lsin, hoh juvon bo‘lsin valiysiz ham o‘zining roziligi bilan bog‘lanishi mumkinligi keltirilsa, boshqa bir rivoyatda faqat valiy bilan bog‘lanishi ta’kidlanadi⁹³.

Arxiv hujjatlariga tayanadigan bo‘lsak ayollar qozi (yoki xon)ga bevosita o‘zi yoki vakili orqali ariza bilan murojaat qilganliklariga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek ayollar tomonidan qilingan murojaatlarning kechki davrga oidlari juda kam saqlanib qolganligini ham alohida ta’kidlash lozim. Nikoh amaliyotida *valiy* voyaga yetgan qizni nikohini uni bevosita rozilgisiz amalga oshirgan holatlari ham kuzatiladi. Valiy mahrni tayin qilish va tasarruf etishda ham yetakchilik qilgan⁹⁴. Agar turmushga chiqayotgan qiz balog‘atga yetmagan bo‘lsa, valiy uning mahrini olish huquqiga ega bo‘lgan. Balog‘atga yetgan qizdan esa roziligi so‘ralgan. Shu bilan birga voyaga yetgan qizdan valiy turmushga chiqishga izn so‘ragan va qizni sukut saqlashi yoki kulishi rozilik alomati, yig‘lashi esa noroziligini bildirgan. Juvon ayol (*sayiba*) roziligini ovoz chiqarib aytishi shart bo‘lgan. Mahalliy odatlarga ko‘ra valiy yetim qizni biron kishi bilan nikohlayotganda imkon qadar ota-onasini yo‘qligini bildarmaslikka xarakter qilishi talab etilgan. Ya’ni bu yerda qizni ko‘nglini o‘ksitmaslik, nikohga majburlash kabi holatlar hisobga olinishi nazarda tutilgan. Xususan unga jabr yetkazadigan nikohga yo‘l qo‘yilmagan⁹⁵.

Shariatga ko‘ra voyaga yetish yoshi o‘g‘il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh qilib belgilangan. Lekin, ko‘pincha O‘rta Osiyoda 15 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar, 10 dan 15 yoshgacha bo‘lgan qizlar voyaga yetgan deb hisoblangan⁹⁶. Albatta bunda jismoniy va aqliy rivojlanganlikka e’tibor qaratilgan. Shuningdek, Xiva xonligida mahalliy odatga muvofiq qizlarni voyaga yetganligini aniqlash uchun cho‘girma bilan urib ko‘rgan. Agar qiz yiqilmasa voyaga yetgan, yiqilsa voyaga yetmagan deb hisoblangan⁹⁷.

Diniy lavozimlar orasida eng qadimgilaridan biri qozi lavozimidir. Ma’lumki,

⁹⁰Бурхониддин ал-Марғинович. Ҳидоя. 1-жилд. – Б. 652 – 653.

⁹¹O‘zR Shi qo‘lyozmalar bo‘limi. №10992 raqamli jung asarga qilgan hujjat.

⁹²Бурхониддин ал-Марғинович. Ҳидоя. 1-жилд. – Б.674.

⁹³Ko‘rsatilgan manba. – Б.667.

⁹⁴Tadqiqotga jalb etilgan oila-nikoh masalalariga oid hujjatlarning aksariyatida nikoh shartnomasi voyaga yetmaganlar o‘rtasida tuzilib, unda valiy asosiy rol o‘ynaganligini ko‘rish mumkin.

⁹⁵OzR MA. Fond И-125. 2- ro‘uxat. Hujjatlar jildi №582. Hujjat №35.

⁹⁶Ишанова Ш.А. Правовое регулирование семейных отношений коренного населения дореволюционного Узбекистана // Общественные науки в Узбекистане. 1991. – С. 39 – 45.

⁹⁷Ushbu ma’lumot Toshkent viloyat, Chirchiq shahar, “Iftixor” mahallasida yashagan aslida Xorazmda tug‘ilib voyaga yetgan Salomot xolaning buvilaridan eshitgan ma’lumotlari asosida keltirildi.

islom tarixining dastlabki davrlarida Muhammad (s.a.v.) va undan keyingi xalifalar bir vaqtning o'zida ham davlat ishlari bilan shug'ullangan, ham fiqhiy masalalarni yechishda ishtirok etganlar. Keyinchalik xalifa Umar (r.a.) (717–722) davriga kelib qozilik lavozimiga alohida shaxslar tayinlangan⁹⁸. Tadqiqotchi Adam Mets ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, 772 yil al-Mansur Misrda qozilik lavozimiga xalifa tomonidan rasman tayinlanadi⁹⁹. O'rta Osiyoda bu vazifani ilk bor kim bajargani to'g'risida aniq fikr bildirish qiyin¹⁰⁰. Lekin T. Qodirova o'z tadqiqotida bir ma'lumotni keltiradi¹⁰¹, ya'ni xalifa Umar (r.a.) tomonidan Samarqand qozisi etib tayinlangan Sulaymon ibn Abu Sari degan shaxsni tilga oladi. Bu shaxs 719 yili Samarqandning mahalliy zodagonlari va Qutayba Ibn Muslim o'rtasida kelib chiqqan xiroj masalasini qonunan hal etishda ishtirok etadi¹⁰². Xalifa Umar (r.a.) davrida qozilik ixtisoslashtirilib, qozilar mulkiy va oilaviy ishlar bo'yicha nizolarni ko'rib chiqqan. Jinoyat ishlarini ko'rish esa asosan xalifa va voliyalar ixtiyorida bo'lgan¹⁰³. X asrda Bog'dodda qoziga 1 nafar kotib, 1 nafar qozilik ishlari ijrochisi (xojib), 1 nafar mayda ishlarni ko'rib chiqadigan qozi (munsif), 1 nafar sud, politsiya va bino boshqaruvchisi (a'von) briktilgan¹⁰⁴.

Ko'rib chiqilayotgan davrlarda O'rta Osiyo, xususan, Buxoro xonligida ulamolar mansabi to'rt qismga bo'lingan¹⁰⁵. Birinchi qism mansabi tarkibiga avvalo shayx al-islom kiritilib, u eng muhim (muammoli) masalalarni yechishda ishtirok etgan va uni islomga muvofiqligini aniqlab bergan¹⁰⁶. Shayx al-islomdan keyin qozi al-quzzot (bosh qozi yoki qozikalon), undan keyin qozi al-askar (harbiylar qozisi) turgan. Qozikalon asosan poytaxtda yashagan va u barcha qozilar ustidan nazorat qilish huquqiga ega edi. Har bir shahar yoki viloyatning o'z qozisi bo'lib, qozisi bo'lmagan joylarda uning vazifasini rais bajargan¹⁰⁷.

Al-xulafoi ar-roshidun davrining ilk bosqichlarida ishlar, asosan, uylar yoki masjidida ko'rilgan¹⁰⁸. Kotib har kuni davolashuvchi tomonlarni ro'yxatga olgan va

⁹⁸Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. – С.183, 198.; Бекмирзаев И. Мовароуннахрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдишлар ва таҳлилий ёндашувлар. Т. 2014. – Б.143–175.

⁹⁹Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. – С.183.

¹⁰⁰Ayrim chekka hududlarda qozi vazifasini viloyat yoki shahar voliyasi bajargan.

¹⁰¹Кадырова Т. Восстание народов Согда в первой четверти VIII в (К изучению движения согдийцев в 719–722) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Б.34.

¹⁰² Ko'rsatilgan manba – Б.35.

¹⁰³Бекмирзаев И. Мовароуннахрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдишлар ва таҳлилий ёндашувлар. – Б.147.

¹⁰⁴Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. – С.192.

¹⁰⁵Mansablar borasida so'z yuritilganda A.A. Semenov, D. Valiyeva, Sh. Vohidov R. Xoliqovalarning tadqiqotlariga tayanildi. Qarang: Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре// Советское востоковедение.V. М. 1948. – С.137–153. Валиева Д. Бухоро хонлигида мансаблар масаласига доир // Шарқшунослик. №11. 2002. – Б.91–101. D. Valiyeva N.V. Xanikovning fikrlariga asoslanib, Buxoroda joriy qilingan mansablar uncha katta bo'lmagan o'zgarishlar bilan Xiva va Qo'qon xonliklarida ham joriy qilingan degan fikrni ilgari suradi; Вохидов Ш. Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX-XX аср бошлари). Тошкент. 2006.

¹⁰⁶XIX asr ikkinchi yarmiga kelib shayx al-islomning vazifasi bir muncha cheklanganligini kuzatish mumkin. Qarang: Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре// Советское востоковедение.V. Москва. 1948. – С.139.

¹⁰⁷Qo'qon xonligida ayrim hollarda qozilar o'zi yashab turgan mavzening hokimi ham hisoblangan. Ayrim manba va tadqiqotlarda qozilar shahar hokimi sifatida ham tilga olinadi. Masalan, Abu Nasr as-Samarqandiy (vafoti 1155) Samarqandda qozilik va hokimlik vazifasida ishlagan. Arab tilida "Al-hokim" so'zining ikkinchi ma'nosi "hakamlik qiluvchi qozi" degan ma'noni anglatadi. Qarang: Бекмирзаев И.И. Мовароуннахрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдишлар ва таҳлилий ёндашувлар. – Б.76.

¹⁰⁸Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. – С.189-190; Бекмирзаев И. Мовароуннахрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдишлар ва таҳлилий ёндашувлар. – Б.147.

qozi bir kunda ellikka yaqin ishni ko'rib chiqishi zarur bo'lgan. Keyingi davrlarda ham bu an'ana sifatida davom etganligini, jumladan, Buxoro amirligida XIX asr oxiri XX asr boshlarida sud ishlari qozi yoki qozi-kalonning uyida ko'rib chiqilganligini ko'rish mumkin¹⁰⁹.

Har qanday tarixiy davrni ilmiy tadqiq etishda hujjatlar muhim manba vazifasini o'taydi. Bunday manbalar qatoriga vasiyatnoma, inoyatnoma, hukmnoma, ahdnoma, vaqf kabi hujjatlarni kiritish mumkin¹¹⁰. Tadqiq etilayotgan davr qancha qadimiy bo'lsa, asl manbaning topilishi ham tobora qiyinlashib boradi¹¹¹. Dastlab xalifalikda rasmiy hujjatlarni tuzishda Yevropa (asosan Vizantiya) an'analari ustunlik qilardi¹¹². Keyinchalik ularning islom dini talablariga mos tushuvchi maxsus *formulyarlari* ishlab chiqilgan. Bunda Umar ibn Xattob (r.a.), keyinchalik xalifa al Mu'tadid (892 – 902)lar tomonidan tashkil etilgan *devonlar* muhim o'rin tutgan edi. Natijada islom huquqiy hujjatlari ma'lum bir me'yorlarga asoslanib tuzila boshlangan. Bu me'yorlar bora-bora an'anaviylik tusini olgan¹¹³.

Markaziy Osiyoda oila-nikoh munosabatlarini rasmiylashtirish an'anasi arablar kirib kelmasdan ancha oldin shakllangan edi. Xususan, bunga misol qilib VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid Sug'dcha nikoh guvohnomasini keltirish mumkin [Nov. 3-4]¹¹⁴. Yuqorida keltirilgan hujjatdan farqli ravishda ko'proq an'anaviy hamda ma'lum ma'noda "*islomiy formulyar*"ni o'zida aks ettirgan qadimgi hujjatlardan biri Sharqiy Afg'onistonning Maymana shahridan topilgan¹¹⁵. Mazkur hujjat VIII asr ikkinchi yarmiga oid bo'lib, Toxoristonning mahalliy hukmdoridan biri *Bek Bomiyyonga* tegishlidir¹¹⁶.

Keyingi davrlarda nikoh instituti tarkibiga kiruvchi (*mahr, taloq, meros* kabi) masalalarning aksariyatini rasmiy hujjat sifatida qonuniylashtirish ancha takomillashganligi kuzatiladi. Xususan, bu jarayonda maxsus *formulyarlar* muhim o'rin tutadi. Ushbu *formulyarlarda* masalani mohiyatiga va matn tuzishda izchillikka ahamiyat beriladi. Abu Hafs an-Nasafiy (1068 – 1142) ning "Matla' an-nujum va majma' al-'ulum" ("Yulduzlarning chiqish joyi va ilmlar majmuasi") asari orqali bevosita bu jarayonga guvoh bo'lish mumkin. Muallif nikohga oid masalalarni

¹⁰⁹Юсупов М.С. Суд в Бухаре. Судостройство и судопроизводство в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX в. Текст и вводная статья: Ульфат Абдурасулов и Паоло Сартори. Ташкент-Вена. 2016. – С.16.

¹¹⁰O.D. Chexovich o'z maqolasida O'rta Osiyo tarixi bilan bog'liq hujjatlarni 34 ta turi (yoki namunasi)ni keltirib o'tadi. Qarang: Чехович О.Д. Задачи Среднеазиатской дипломатики // Народы Азии и Африки. – С. 75 – 82.

¹¹¹Фуломов С. "Иншо" мажмуалари маълумотининг аутентлиги хусусида (Амир Темура номи билан боғлиқ хатлар мисолида) // Марказий Осиё тарихи замонавий медиавистика талқинида. Тошкент. 2013. –Б.257 – 269.

¹¹²Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. – С.78. Lekin ayrim tadqiqotchilar arab hujjatlarining tuzilishi va uslublarida qadimgi Misr hujjat yuritish an'analari elementlari ham mavjudligini ta'kidlab o'tadilar. Qarang: Шамсиддин Камолиддин. Новые арабские документы из Тохаристана (третья четверть VIII в.н.э.). Lambert Academic Publishing Germany. 2012. – С.3 – 8.

¹¹³Hujjatlarni rasmiylashtirishga mahalliy hujjat yuritish an'analari ham ustalik bilan singdirilgan (ta'kid bizniki – N.X.).

¹¹⁴ Исхоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Б.37–39.

¹¹⁵ Bu hujjatlarda qadimgi Misr, Baqtriya, Sosoniylarning hujjat yuritish an'analari aks etgan. Qarang: Шамсиддин Камолиддин. Новые арабские документы из Тохаристана (третья четверть VIII в.н.э.). – С.16.

¹¹⁶Bu hujjatlar hozirgi kunda Nosir Dovid Xaliliy (London, Buyuk Britaniya) fondida saqlanadi. Hujjatlar dastlab ingliz tadqiqotchisi G. Khan tomonidan tadqiq etilgan. Qarang: Khan G. Newly discovered Arabic documents from early Abbasid Khurasan // From al-Andalus to Khurasan. Documents from Medieval Muslim World / Ed. by P.M.Sijpestejn, L.Sundelin, S.T.Tovar, A.Zomeno. Leiden-Boston: Brill, 2007, – P.201 – 215. Keyinchalik Tadqiqotchi Sh. Kamoliddinov hujjatlarni rus tilida nashr ettirgan. Qarang: Шамсиддин Камолиддин. Новые арабские документы из Тохаристана (третья четверть VIII в.н.э.). – С.3-8.

mazmuniga qarab quyidagi tartibda keltiradi¹¹⁷. Nikoh aqdi. Bu hujjat quyidagi masalalarni o'z ichiga olgan: Voyaga yetmagan qizni turmushga berish; voyaga yetmagan qiz bilan voyaga yetmagan bolaning turmush qurishi; voyaga yetmagan kuyovning otasi tomonidan voyaga yetmagan kelinning mahrini to'lash uchun kafolat berishi; kelinning roziligi bilan vasiyga kuyov tomonidan mahrning bir qismini berish; vasiysiz turmushga chiqyotgan kelinga kuyov tomonidan mahrning bir qismini berish. Nikohni bekor qilish uchun da'vo arizasi: ayol kishining da'vo arizasi; erkak kishining da'vo arizasi; xotinning eriga qaytarish uchun zarur bo'lgan umumiy holatlar [yoki masalalar]; ayolga jismoniy yaqinlik qilmasdan oldin nikohni bekor qilish; ma'lum shartlarga asoslanib farzandni ayol (ona)ga qaytarish; ayol kishining maxsus talablar asosida nikohdan ozod qilinishi. Hujjat yuritishning bunday *formulyarlarini* asosan bo'lajak qozi va faqihlar bilishi shart hisoblanardi. Shu bois ular maxsus dars sifatida madrasalarning o'quv dasturiga kiritilib, talabalarga o'qitilgan¹¹⁸.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **“Oila-nikoh munosababtlarida aqd, mahr, ta'loq, nafaqa va yetim bola masalasi”** deb nomlanib, *u mahr*, nikohni bekor qilish (taloq)da ayolning ishtiroki, nafaqa tayinlash va yetim bola masalalarini qamrab olgan. Oila islom nuqtai nazaridan o'zaro kelishuvga ko'ra tuzilib, u ma'lum bir qoidalar asosida tartibga solinadi. Ushbu qoidalarga ko'ra oilaning birinchi sharti sifatida nikoh (*aqd*)¹¹⁹ e'tirof etilgan va nikoh yuzaga kelishi uchun boshqa bir qancha qo'shimcha “shartlar”¹²⁰ talab qilingan. Nikohning dastlabki shartlaridan biri *mahr*¹²¹ bo'lib, u Qur'onda *sadoq, sadaqa, ajr, fariyza, nihla* kabi nomlar bilan ataladi¹²². *Mahr* bevosita ijtimoiy, iqtisodiy hayot bilan bog'liq ravishda jamiyat hayotida o'z amaliy ko'rinishiga ega bo'lgan. Shu bois bu masala doirasida ulamolar ko'plab bahs-munozara yuritgan va uning qonun-qoidasini fiqh nuqtai nazaridan shariatga muvofiq ishlab chiqqanlar. Ayolga *mahr* berish (yoki belgilash)ning qat'iy shart ekanligi to'g'risida turli fikrlar mavjud¹²³. Jumladan, Burhoniddin al-Marg'inoniy o'zining “Hidoya” asarida nikohni *mahr* belgilamay turib ham amalga oshirish mumkinligiga ishora qiladi¹²⁴. Bu holat ayolga mahr bermaslik sharti bilan uylanishga yo'l qo'yadi¹²⁵. Lekin bunda asosan e'tibor nikohning lug'aviy ma'nosiga qaratilib, unda er-xotining o'zi bilan nikoh mukammal bo'lishi nazarda tutiladi¹²⁶. Ya'ni nikohlanuvchi ikki shaxsning mavjudligi *mahrni* zikr qilishga ehtiyoj

¹¹⁷Булгаков П.Г. Формуляр некоторых документов по частному праву из энциклопедии Ан-Насафи. Материаль по истории науки и культуры народов Средней Азии. Ташкент. 1991. – С.67 – 79.

¹¹⁸Abu Xafs an-Nasafiyning “Matla' an-nujum va majma' al-'ulum” asari XI – XII asrlar Markaziy Osiyo ta'lim dasturi darsliklarini aks ettiruvchi manba hisoblanada. Qarang: Muḥammaḍamiṇov S.A. Абу Хафс ан-Насафийнинг “Матла' ан-нужум ва мажма' ал-'улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожига тутган ўрни (XI аср охири ва XII аср ўрталари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент. 2012. – Б.7.

¹¹⁹ Aqd – tugun.

¹²⁰Bu o'rinda ushbu atama shartli ravishda qo'llanildi.

¹²¹Mahr mahal (ayol jinsiy a'zosi)ning sharafligi ekanligini bildiruvchi tushuncha. Qarang: Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1 жилд. – Б.690.

¹²² Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 2-китоб. – Б.361.

¹²³Xususan, Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf ham o'zining “Kifoya” asarida mahrni nikohning sharti yoki rukni sifatida e'tirof etmaydi. Lekin u mahrning oldi-berdisi qachon bo'lsa ham amalga oshirilishi kerak degan fikrni ilgari suradi. Qarang: Кифоя. 2-китоб. – Б.362.

¹²⁴Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1 жилд. – Б.690.

¹²⁵Mahr o'zaro kelishuvga ko'ra berilmasligi ham mumkin bo'lgan.

¹²⁶Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1 жилд. – Б.690.

qoldirmaydi. Lekin barcha musulmon ulamolari Qur'oni Karimning Niso surasida keltirilgan "Xotinlaringizga *mahr*larini hadya kabi (ya'ni chin ko'ngildan mamnunlik bilan) beringiz! Agar o'zlari sizlar uchun u mahrdan biron narsani ixtiyoriy ravishda kechsalar, sizlar uni pok va muborak bilib qo'yaveringlar"¹²⁷ degan oyatga asoslanib, nikohning *mahrsiz* bo'lmashligiga ijmo¹²⁸ qilganlar¹²⁹. *Mahr* miqdorini belgilashda hanafiyya¹³⁰ fiqhshunoslari hadisga tayanganlar. Unga ko'ra eng kam *mahr* o'n dirham, undan yuqorisi chegaralanmagan¹³¹. Agar *mahr* o'n dirhamdan kam qilib belgilangan bo'lsa ham, u albatta o'n dirham qilib berilishi kerakligi to'g'risida ulamolar fatvo chiqargan. Shofe'iy mazhabi¹³² ulamolari esa *mahrni* ayolning haqqi deb baholagan va uning miqdorini ham ayol kishining ixtiyoriga havola qilganlar¹³³. Shu bilan birga, ular shariatga ko'ra savdo-sotiqda nimaniki pul o'rnida ishlatish joiz (ruxsat etilgan) bo'lsa, shu narsa *mahr* qilib berilishi kerak degan fikrni ilgari surgan.

Bir dinor o'rtacha 2,4 gramm oltinga teng bo'lgan¹³⁴. Shuningdek ayrim ulomolar payg'ambar (s.a.v.) davrida o'n dirhamga bitta qalqon sotib olish mumkin bo'lgan degan rivoyatni ham keltirganlar¹³⁵. Eng kam *mahr* miqdori qaysi davr bo'lishidan qat'iy nazar o'rtacha 2,4 gramm oltin bahosida belgilangan. Bu pul birligiga qarab o'zgarib borgan. Masalan XX asr boshlarida o'n dirham 2 rublga teng bo'lgan¹³⁶. XVIII asr oxiri XIX asrlarda Buxoro xonligining 1ta oltin tangasi ruslarning 4 rubliga teng bo'lgan¹³⁷. Shariatga ko'ra har bir dinor tilla o'n dirham kumushga teng deb qabul qilingan¹³⁸.

Mahr o'z o'rnida er-xotinlik munosabatlariga ko'ra turlarga ajratilgan. Ulardan biri *mut'a*¹³⁹ bo'lib, bunda erkak ayolni muayyan muddatga ma'lum bir mablag' (*mahr*) evaziga nikohiga kiritgan. Hadislarda keltirilishicha, Muhammad (s.a.v.) Makka fathidan keyin boshlangan Hunayn g'azotida uch kunga *mut'aga* ruxsat bergan va keyin buni taqiqlagan¹⁴⁰. Shuningdek, islom fiqhshunosligida muvaqqat (vaqtincha) nikoh degan tushuncha ham mavjud bo'lib, u *mut'a* nikohiga o'xshash deb ta'riflanadi¹⁴¹. Burhoniddin al-Marg'inoniyning fikriga ko'ra u lafz (so'z) jihatdan nikoh, ma'no jihatdan *mut'adir*¹⁴². Qashqarda bu nikoh *cho'kan*¹⁴³ deb

¹²⁷Niso 4-sura, 4-oyat. Qarang: Куръони Карим ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Б.55.

¹²⁸Ijmo – Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalalarni hal qilishda faqih va mujtahidlarning to'planib, yagona fikrga kelgan holda chiqargan hukmi (fatvosi). Bu amaliyot arab xalifaligida VIII asr oxiri IX asr boshlarida vujudga kelgan.

¹²⁹Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 2-китоб. – Б.362.

¹³⁰Hanafiyya mazhabiga Imom A'zam Abu Hanifa (699–767) tomonidan asos solingan.

¹³¹Chunki miqdori o'n dirham bo'lgan (narsa yoki pul) o'g'irlik uchun jazo belgilangan.

¹³²Shofe'iy mazhabiga Imom Shofe'iy (767–820) tomonidan asos solingan.

¹³³Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1 жилд. – Б.690.

¹³⁴Ахроров Н. Қадимий ўлчов бирликлари. Тошкент. 1996. – Б.56.

¹³⁵Салоҳиддин Нуриддин. Оила ва шарий никоҳ одоблари. – Б. 27.

¹³⁶Мунтахаб ул-масоил-Туркистон вилоятининг туб вилоятларида амалда бўлган муҳим шариат қонунлари. – Б. 42.

¹³⁷Давидович Е.А. История монетного дела Средней Азии XVII-XVIII вв. (Золотые и серебряные монеты Джанидов). Душанбе. 1964. – С. 67.

¹³⁸Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1 жилд. – Б.371.

¹³⁹Mut'a –huzurlanish, jinsiy huzurlanish uchun vaqtincha uylanish. Qarang: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 2-китоб. – Б.362.

¹⁴⁰Bu hadisni Muslim, Abu Dovud, Nasaiylar rivoyat qilgan. Qarang: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 2-китоб. – Б.335.

¹⁴¹Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 2-китоб. – Б.337.

¹⁴²Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1-жилд. – Б.664.

nomlangan. Aslida bu soʻz turmushga chiqib taloq qilingan (ajrashgan) ayolga nisbatan qoʻllanilgan. Demak, aksariyat hollarda boshi ochiq (juvon) ayollar vaqtincha nikohga rozi boʻlgan deyish mumkin.

Shuningdek, *mutʼa* va muvaqqat nikohlar oʻrtasida maqsad jihatidan oʻzaro farq mavjud boʻlgan. *Mutʼa* asosan jinsiy lazzat olish uchun tuzilgan, vaqtincha nikoh esa sharoit va maʼlum bir talablardan kelib chiqib amalga oshirilgan. Muvaqqat nikoh tuzilayotganda uning muddati albatta koʻrsatilgan hamda aytilgan mahr va nafaqa¹⁴⁴ ayolga berilgan¹⁴⁵. Tadqiqotchi M.A. Gizbullaev vaqtincha nikoh qadimda yevrey, fors, islom kirib kelguncha esa arablar orasida amaliyotda qoʻllanilganligini aytib oʻtadi¹⁴⁶. U dogʻistonlik fiqhshunos Said ibn Muhammad Arkoniy (1764-1834)ning *النساء متعة حكم* (“Vaqtinchalik nikohning huquqiy asosi”) nomli asariga tayanib, vaqtincha nikoh Muhammad (s.a.v.) tomonidan taqiqlanganligi va bu haqda mashhur imomlar ijmo qilganligini keltiradi¹⁴⁷. Shunday boʻlsada, jafariya mazhabida¹⁴⁸ bu nikohga ruxsat berishini taʼkidlab oʻtadi. *Mutʼa* nikohi oʻrta asrlarda xattoki, Buxoro-Eron munosabatlarida tilga olinadi. Jumladan, Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Abdullaxon Hirotga yurishi¹⁴⁹ asnosida Buxoroga odam joʻnatib Hirotni dorul harbmi¹⁵⁰ yoki yoʻqmi mazmunida ulomlardan fatvo soʻraydi¹⁵¹. Qozi al-quzzot Nuriddin imomlar, ulamolar va fatvo mutasaddiylari (muftiylar)ni oʻz uyiga chaqirib masalani koʻrib chiqadi hamda *mutʼa* nikohiga alohida toʻxtalib “*Mutʼa nikohiki, ulomolar ittifoqi bilan harom va botildir, uni halol deb eʼtiqod qilsalar moʻminlardan hech biri va islomiyat davridagi zimiylar ulardan oʻz joniga omonda boʻlmas*” deydi¹⁵². Iroqda muvaqqat nikoh turi norasmiy tarza hozirgi kungacha amalda qoʻllanilib kelinmoqda¹⁵³.

Oʻrta Osiyoda *mahr* ikki xil yoʻl bilan berilganligi kuzatiladi. Agar u tezlik bilan berilishi lozim boʻlsa, *mahri* muajjal deyilgan. *Mahri* mojul¹⁵⁴ (yoki muvajjal)da esa uning bir qismi oldindan, qolgan qismi esa erning vafoti yoki ajrashganidan keyin

¹⁴³Ushbu maʼlumotlarni taqdim qilgan OʻzR FA ShI yetakchi ilmiy xodimi tarix fanlari doktori A. Xoʻjayevga oʻz minnatdorcniligimni bildiraman.

¹⁴⁴Nafaqa deganda taom, kiyim, uy-joy, kerakli uy-roʻzgʻor buyumlari tushunilgan.

¹⁴⁵Максудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул-максуд ёки Мухтасар ул-виқоянинг ўзбекча шарҳи. – Б.398.

¹⁴⁶Гизбуллаев М. А. Взгляд на “временный брак” в контексте изучения дагестанского арабоязычного правового заключения Саида Араканского // Исламоведение. 2014. №3. – С. 74. <https://cyberleninka.ru> (murojaat qilingan sana 11.02.2015).

¹⁴⁷Koʻrsatilgan manba. – С. 76.

¹⁴⁸Jaʼfariya mazhabi tarafdorlari Ali (r.a.) boshlab uning avlodlaridan boʻlgan oʻn ikkita imom borligiga ishonadilar. Jaʼfariya shiyalar *mutʼa* nikohini qouniy deb biladi, lekin zaydiylar va fotimiy (ismoiliy) shiyalar esa sunniylar kabi uni poqonuniy deb biladi. Qarang: Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Ислom ҳуқуқшунослиги, ханафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. –Б.127.

¹⁴⁹Muallif Hirot va uning atrofidagi qalʼalar deb keltiradi. Bu vaqtda Hirot Eronga qarashli edi va Abdullaxonning Hirotga yurishi ortida Eronga yurishi yotardi. Shuningdek, Boburning “Boburnoma” asarida Hirotta temuriylar davrida ham shiya mazhabiga mansub ayrim kishilar yashaganligi qayd etiladi. Zayniddin Muhammad Vosifiy. *Badoyeʼul vaqoyeʼ* (“Nodir voqealar”) asarida ham Hirotni Eron tomonidan bosib olinish voqeari bayon etilgan.

¹⁵⁰Dorul harb-kofirlar diyori. Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1 жилд. – Б.762.

¹⁵¹Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома. – Б.266.

¹⁵²Koʻrsatilgan manba. – Б.266.

¹⁵³Bu haqda BBC tomonidan maxsus koʻrsatuv tayyorlangan. Qarang: <https://pt-br.facebook.com> (murojaat qilingan sana 11.06.2019); Tadqiqotchi Abdullhakim Sharʼiy Joʻzjoniy Eron Islom Respublikasi fuqorolik qonunining 6-boʻlim, 1075-1077 moddalarida vaqtincha nikoh “nikohi munqati” nomi bilan qonuniylashtirilganligini keltiradi. Qarang: Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Ислom ҳуқуқшунослиги, ханафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. –Б.91.

¹⁵⁴Mahri mojul-nikohdan keyin beriladigan pul. Иброҳимов Б. Васикалар тўплами (XVI асрнинг иккинчи ярми Самарқанд областидаги юридик документлар). – Б.127.

berilgan¹⁵⁵. Qozilik amaliyotida esa mahrni-mahri mojul turi ko‘proq uchraydi. Shuningdek, urfga ko‘ra mahrni nasiya qilish mumkin bo‘lgan¹⁵⁶. Xorazmda *mahr* oldindan talab qilinmagan, qachonki er-xotin ajrashsa yoki er vafot etsa, ayol mahrni olish huquqiga ega bo‘lgan¹⁵⁷. Agar er vafot etgan bo‘lsa mahrni qolgan qismi uning merosidan olib berilgan. Bu *haqq-i nikoh* deyilib, merosni 1/8 ni tashkil qilgan. Manbada ta’kidlanishicha, bu Xorazmda odat hisoblangan. Ushbu ma’lumot qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qilsa-da, buni mazkur hududda *mahrdan* ko‘ra *qalin* ustunroq turganligi bilan izohlash mumkin.

Islom shar’iy qoidalariga muvofiq taloq hasan taloq, ahsan taloq, bid’iy taloqdir¹⁵⁸. Taloqning adadi Qur’oni Karimda keltirilgan. Jumladan, xotinni qayta nikohga olish mumkin bo‘lgan taloq “(Er xotinni qayta nikohga olishi mumkin bo‘lgan) ikki martadir. So‘ngra (oilani) yaxshilik bilan saqlash yoki chiroyli suratda ajrashish (lozim). Va sizlar uchun ularga (xotinlaringizga) bergan narsalaringizda (ularning mahrlaridan) biron narsani qaytarib olishingiz durust bo‘lmaydi”¹⁵⁹. Hasan taloq – sunnatga muvofiq qilinib, ayol uchta poklik (ya’ni hayzdan poklangan) davrida bo‘lib-bo‘lib uch marotaba taloq qilinadi. Ahsan taloqda esa ayol poklik davrida bir taloq qilinadi va idda muddati o‘tgandan keyin yangitdan nikoh qilinib, unga mahr beriladi¹⁶⁰. Odatda, ayolning idda muddati uch oy-u 10 kun, eri vafot etgan ayollar uchun esa to‘rt oy-u 10 kun qilib belgilangan¹⁶¹. Ahsan taloq borasida ulamolar o‘rtasida ixtiloflar mavjud¹⁶². Bid’iy taloq – bir lafz bilan ayolni uch taloq qilishdir. Bu taloq er-xotin butunlay ajrashib ketishiga sabab bo‘ladi. Hujjatlar tahliliga ko‘ra qozilik amaliyotida taloqning bir taloq va uch taloq ko‘rinishi ko‘proq uchraydi. Bunday taloqdan keyin ayolga mahr berilishi shart. Umuman, mahrning shartiligi borasida ham ba’zi bir ixtiloflar mavjud. Lekin aksariyat hollarda ayol mahrdan voz kechgan. Ayolning bunday yo‘l tutishiga sabab bo‘lgan omillar hujjatlarda keltirilmaydi. Ba’zi bir og‘zaki rivoyatlarga ko‘ra, o‘z ixtiyori bilan mahridan voz kechgan ayollar uchun jannat eshiklari ochiladi¹⁶³.

Oila-nikoh masalasiga taalluqli hujjatlarda ayolni erining vafoti yoki taloqdan keyingi iddalari borasida ma’lumotlar keltiriladi. Ayol har qanday holatda ham erining uyida idda o‘tirgan. Agar u taloq iddasida bo‘lsa, eri uni idda muddati o‘tguncha nafaqa bilan ta’minlashi shart edi. Shu jumladan, farzandlarini ham. Agar ayolning eri vafot etgan bo‘lsa, u nafaqani o‘z hisobidan yoki erining merosi bo‘lingan bo‘lsa, merosdan

¹⁵⁵Каримов Э. Юридические аспекты семейно брачных отношений в Средней Азии XIX начала XX веков // Марказий Осиё тарихи замонавий медиєвистика талкинида (Профессор Розия Мукминова хотирасига бағишланади). – С.203–213.

¹⁵⁶Максудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул-мақсуд ёки Мухтасар ул-виқоянинг ўзбекча шарҳи. – Б.409

¹⁵⁷О‘zR FA ShI qo‘lyozmalar bo‘limi №8412. 4^a-varaқ.

¹⁵⁸Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1-жилд. – Б.764; Shayx Muhammad Sodiқ Muhammad Yusuf taloqni ahsan, sunniy, bid’iy, ochiq-oydin, kinoyali turlarga ajratadi. Qarang: Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Кифоя. 2-китоб. – Б.388-413; Salohiddin Muhiddin fuqaholar taloqni qachon va qanday ishlatilsa shariatga muvofiq bo‘lishini nazarda tutib, uni sunniy taloq-shariat ko‘rsatmalariga muvofiq, bid’iy taloq-shariat ko‘rsatmalariga muxolif deb aytib o‘tadi. Qarang: Салоҳиддин Муҳиддин. Шаръий никоҳ одоблари. – Б.39.

¹⁵⁹Вақара 2-сара, 229-оуат. Қуръони Карим ўзбакча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Б.27.

¹⁶⁰Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1-жилд.– Б.766; Yarashish idda ichida (ma’lum muddatda) bo‘lsa, ayolning yarashishga rozi yo rozi emasligining ahamiyati yo‘q. Ammo idda chiqsa, u holda ixtiyor ayolga ham o‘tadi. Lekin yarashishlari mumkin. Qarang: Салоҳиддин Муҳиддин. Шаръий никоҳ одоблари. – Б.43.

¹⁶¹Салоҳиддин Муҳиддин. Оила ва шаръий никоҳ одоблари. – Б.49 – 53.

¹⁶²Бурхониддин ал-Марғиноний. Ҳидоя. 1-жилд. – Б.766.

¹⁶³2014 yil. Iyul. Qo‘qon shahri hududi atrofida yashovchi otin oyilar bilan suhbat.

olishi mumkin bo'lgan. Xiva xonligida xotini yoki farzandlariga nafaqa bermagan shaxslarga oid hujjatlar ko'proq uchraydi¹⁶⁴. Ushbu hujjatlar da'vo arizasi ko'rinishida bo'lib, uning ijrosi bevosita yasovulboshining aralashuvi bilan hal etilgan. Shuningdek, ayolning idda saqlamasligi to'g'risidagi hujjatlar ham uchraydi. Bunday hujjatlarni nodir hujjatlar qatoriga kiritish mumkin. Burhoniddin al-Marg'inoniy "Hidoya" asarida harbiy musulima ayol, asira va hijrat qilgan ayolllar idda saqlamasligini aytib o'tadi¹⁶⁵. Lekin nikoh amaliyotida har qanday holatda ayol imkon qadar idda o'tirishga buyurilgan. Quyidagi hujjatda bunga guvoh bo'lish mumkin: «... *bu duogo'ylarning ariza doshti ulkim Muhammad Sharif deganning qozi falon eshon hukm etib o'lubdur debdur fahmlari ulkim, xotung'a xukmi din bunga idda lozim ermas va bu duogo'ylarning fahmlari ulkim, xotung'a xukmdin so'ng idda ehtiyotan lozim turur va iddasini o'tkarsa ... oliy yaxshi bo'lur sohib ehtibordur... davlat va umrlari bardavom bo'lg'ay omin, omin, omin*»¹⁶⁶. Hujjatga oltita muhr tushirilgan.

Ayol ko'ngilsiz bo'lib yoki biron bir sabab bilan eridan taloq so'rasa, uning evaziga mahr qaytarib berilgan. Bu *xulu* (خلو)¹⁶⁷ deyilib, rivoyatlarga ko'ra sahobalardan Sobit ibn Qays (r.a.)ning ayoli Jamila (r.a.) shunday yo'l tutgan¹⁶⁸. U mahr evaziga olgan bog'ni eriga qaytargan. *Xulu'* boyin taloqqa tenglashtirilgan va undan qaytish durust hisoblanmagan. Fiqhiy manbalardan biri "Jomi'u-r-rumuz"da keltirilishicha, bunda vaziyatda ayol: "o'zimning sendagi mahrimni va idda nafaqamni bir taloqqa sotib oldim", er esa: "men ushbu shart bilan sottim" deyishi lozim bo'lgan¹⁶⁹. Qizning otasi ham *xulu'* qilishi mumkin edi. Agar voyaga yetmagan qizning otasi o'z moli evaziga *xulu'* qilsa (yani molini berib qizini eridan chiqarib olsa) taloq tushgan va aytilgan molni berish shart bo'lmagan. *Xulu'* qilish huquqidan nafaqat ayolllar balki erkaklar ham foydalangan. Agar *xulu'* vaqtida qozining hukmi bilan xotinning mahri va farz bo'lgan nafaqa soqit bo'lganligi tilga olinsa ular berilmagan. Lekin xotinning o'tirgan uyi sotiqlik bo'lmagan qachonki, ayol o'z turadigan joyini gardaniga olmaguncha¹⁷⁰.

Erning majburiyatalari doirasiga xotin va voyaga yetmagan yoki nogiron farzandlariga nafaqa berish ham kirgan. Nafaqa turish uchun joy, kunlik oziq-ovqat va kiyim-kechakdan iborat bo'lgan. O'rta Osiyo nikoh amaliyotida nafaqaning kunlik, oylik yoki bir yo'la berilgan turlari uchraydi¹⁷¹. Bu albatta er-xotinning o'zaro kelishuvi va shariy qoidalar, mahalliy urf-odatlariga muvofiq amalga oshirilgan. Ko'pincha kunlik nafaqa qozining qarori bilan belgilangan. Shuningdek, er safarga ketsa yoki biron sabab bilan xotinini oldida bo'lmasa ham er safar muddatiga qarab nafaqani oldindan bergan. Agar er nafaqa tashlab ketmagan bo'lsa xotin qarz olishi mumkin bo'lgan. Bu qarz qozining qarori bilan erning hisobidan olingan. Er qaytib kelgandan so'ng olingan qarzni to'lagan. Agar er biron sabab bilan qaytib kelmasa olingan qarz uni merosidan olingan.

¹⁶⁴ O'zR MA. Fond. II-125, ro'yxat-2, №646.

¹⁶⁵ Burhoniddin al-Marg'inoniy. Hidoya. 1-jild. – B.740, 742.

¹⁶⁶ O'zR MA. Fond. II-125, ro'yxat -1, №64.

¹⁶⁷ Хулуъ (خلو) خلا – bo'sh qolish, to'ldirilgan; ozod bo'lish. Арабско-русский словарь. I-том. Составил проф. Х.К. Баранов. – С.298. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ushbu so'zni ko'proq lug'atda "kiyim yechish" ma'nosida qo'llanilishini aytib o'tadi. Qarang: Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. 2-kitob. – B.455; Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja xulu' (xul')ni lug'atda "ketkizmoq va boyin tushmoq" tarzida kelishini aytib o'tadi. Qarang: Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. Mажмаъ ул-максуд ёки Мухтасар ул-виқоянинг ўзбекча шарҳи. – B.492.

¹⁶⁸ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. 2-kitob. – B.457.

¹⁶⁹ Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. Mажмаъ ул-максуд ёки Мухтасар ул-виқоянинг ўзбекча шарҳи. – B.492.

¹⁷⁰ Ko'rsatilgan manba. – B.496.

¹⁷¹ O'zR FA ShI qo'lyozmalar bo'limi №1386.

Ayolga berilgan yoki berilishi nazarda tutilgan nafaqa er yoki xotinning tilhati orqali rasmiylashtirilgan.

O'rta Osiyo xalqlariga xos xususiyatlardan biri bag'rikenglik va mehr-muruvvatlilikdir. Xususan, yetimning boshini silash, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, unga bag'rikenglik bilan munosabatta bo'lish an'anasi ham qadimdan shakllangan. O'rta Osiyo hududida tashkil topgan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga tegishli arxiv fondlarida yetim bolalarga oid hujjatlar ham uchraydi. Ushbu hujjatlarning katta qismi XIX – XX asr boshlariga oiddir. Hujjatlar mazmuni va tuzilishi jihatdan turli xil bo'lib, ularni quydagi qismlarga ajratish mumkin: yetim bolani farzandlik yoki vasiylikka olish; yetim bolani merosiy mulkidan foydalanish; yetimlarning nikohi; saroyda tarbiyalangan yetim bolalar.

Yuqorida keltirilgan hujjatlarning asosiy qismi qozilik tizimida rasmiylashtirilgan. Qozilik hujjatlarida asosan ota-onasi, otasi yoki onasi yo'q bolalarga nisbatan *sag'ir* (arabcha – kichik, go'dak, yosh bola) termini qo'llanilgan. Ushbu so'z O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek va tojiklar orasida yetim degan ma'noni anglatgan¹⁷². X – XIII asrlarga oid ayrim qozilik hujjatlarida arabcha yetim (yatimun-يَتِيم) terminining o'zi ham uchraydi. Ota-onasi bor, lekin voyaga yetmagan bolalarning ismi yoniga ham kamdan-kam hollarda *sag'ir* so'zi qo'shib yozilgan. Shu bois bu masalalarni hujjatlar mazmuniga qarab bir-biridan farqlash mumkin.

XULOSA

Dissertatsiyada Oila-nikoh munosabatlarida ayollarning mavqeyi XVI-XX asr boshlari misolida ilk bor bevosita mavzuga oid bo'lgan tarixiy asarlar, qo'lyozma manba va arxiv hujjatlari shuningdek, boshqa qo'shimcha manbalar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida materiallarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Matriarxat davridan boshlab onalarga jamoani sardori, urug'ni davom ettiruvchi iloh sifatida qarash paydo bo'lgan va bu onalarning siymolarini chizish, haykallarini yasashda aks etgan. Bu davrda oliy xudo ona ma'buda obrazi bo'lib, uning asosiy vazifasi dunyo va barcha tirik mavjudotlarni yaratishda ishtirok etish, hosildorlikka homiylik qilish, qonunlar hamda yashirin bilimlarni o'z ichiga olgan ijodiy vazifalarni bajarishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, ona tasvir uchta asosiy – nasl berish (tug'ish), oziq-ovqat olish, vaqtni o'zgartirish (o'lim va qayta tug'ilish) kabi omillarga ko'ra muqaddaslashtirilgan;

2. Arxeologik topilmalarga ko'ra, O'rta Osiyoda asosan ona mabuda yoshi ulug', do'mboq yuzli, katta burunli, tor iyakli, ko'zlari yerga qaragan holda tasvirlangan. Qadimgi Xorazmlilar Mardona, moniylik (manixay) matnlarida esa u Nana deb atalgan va qadimgi turkiy bitiklarda Mayana, o'zbeklarda Umayana, tojiklarda momo yoki bibi deyilgan. Samarqandning ayrim hududlarida keksalarga nisbatan Mardona so'zi ham qo'llanilgan.

3. Oila-nikoh munosabatlarida ayollarga nisbatan qarindoshlik darajalari (nasabiga qarab) va ijtimoiy ahvoli hamda bajargan vazifasiga qarab murojaat qilingan. Xususan, ayol hayoti davomida ma'lum bir maqom darajalari (momo, ena, ona, qiz, opa-

¹⁷²Троицкая А.Л. Сагира в Кокандском ханстве (XIX в.) // Исследования по истории культуры народов Востока. – С. 271.

singil, amma, xola va hokazo)ga ega bo'lgan va bu qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan. Qarindoshlikning birinchi bo'g'ini buvi bo'lib, unga nisbatan mahalliy so'zlashuv shevalarida momo, ena, katina (katta ena), anna kabi so'zlar qo'llanilgan. Ona (آنا) “Avesto”da “Matri” deyilib, “tarbiyalovchi” ma'nosida izohlangan. U o'g'uz tilida ابا (aba) qarluq turkmanlarida esa ابا (apa) deyilgan.

4. *Bonu* so'zi hurmat ma'nosida ayollar ismi yoniga qo'shib ishlatilgan. Yuqori tabaqaga mansub xotin-qizlar haqiqiy ismlari bilan tilga olinmay, boshqa jumlar bilan atalgan. Bunga xonum, begim, og'o/og'a, oqa/aka, bekach yoki ikkinchi ism bilan nomlanishlarini kiritish mumkin. Oilada qiz farzand tug'ilsa, “pardalik bola”, “ziyatn sohibi” yoki “mastura” kabi so'z va iboralar qo'llanilgan.

5. O'zbekiston davlatchiligi tarixida ayollar nafaqat oilada balki, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Tarixiy faktlar rakursida ayol oqila, matonatli, tadbirkor, ma'rifatli, orifa, odillik tarafdori, siyosiy tafakkurga ega, davlat boshqaruvidan xabardor, mushfiq va mehribon inson qiyofalarida gavdalanadi. Ular ona, opa, singil, amma, momo, umr yo'ldoshi kabi tabiiatan o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni ham a'lo darajada bajarganliklariga guvoh bo'lish mumkin.

6. O'rta Osiyo xonliklarining XVI-XX asr boshlariga oid oila-nikoh munosabatlari, unda ayollarning tutgan o'rni islom huquqshunosligi, oila instituti, turli tabaqa mansub ayollar hayoti, faoliyati tarixshunoslik nuqtai-nazardan va hududlar kesimida tizimli o'rganilmaganligi oydinlashadi. Qisman Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida yashagan yuqori tabaqa ayollarining hayoti va faoliyatini hisobga olmaganda, boshqa tabaqaga mansub ayollarning ahvoli, jamiyatdagi ishtiroki haqida batafsil tasavvr xosil qilish imkonini bermaydi. Bu esa O'rta Osiyo ayollari masalasida hanuzgacha asosli ilmiy xulosalar berishga to'sqinlik qilib kelmoqda.

7. Tarixiy manbalarda ayollar hayoti bilan bog'liq voqealar uzuq-yuluq shaklda uchraydi. Shunday bo'lsa-da, ular bizga nodir ma'lumotlarni taqdim qiladi. Xususan, siyosiy manfaatlarni ko'zlab amalga oshirilgan nikoh munosabatlari, davlat miqyosi darajasidagi ishlarda faol ishtirok etgan ayollar, turli ijtimoiy tabaqaga mansub ayollar haqidagi ma'lumotlarni ular qatoriga kiritish mumkin. Ushbu ma'lumotlar O'rta Osiyo ayollarining oila va jamiyatda tutgan o'rni hamda rolini aniqlashga yordam beradi.

8. Maj'mu' al-vasoyiq, jung asarlar va qozilik xujjatlari xatt-i nikoh (nikoh xati), vasiqa-i taloq (taloq vasiqasi), xatt-i iqorayi zavja (xotin (ayol)ning iqror xati) kabi hujjatlarning formulyalari, ayrim asarlar esa faqat hujjat formulyalari bag'ishlanganligini ko'rish mumkin. Junglarga ilova qilingan asl hujjatlar va formulyalarda o'rta asrlarga xos hujjat yuritish tartibi aks etgan.

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxivida saqlanayotgan hujjatlarda maxzar, rivoyatlar, taloq, *idda*, *xulu*, *mahr*, *vakil*, nikohona va tariqona pullarini undirish, nafaqa, voyaga yetmagan qizlarni nikohi, *kufu* (tenglik), *sag'ir* (etim) masalalariga bag'ishlangan masalalar mavjud. Ularni shariy qoidalar va urf masalalarini amaliy ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

10. Ko'rib chiqilayotgan davrlarda yozilgan tarixiy asarlar ayollarning yashash tarzi, jamiyat va oiladagi mavqei, kundalik hayotdagi ishtiroki masalalarini to'liq ochib berish imkoniga ega emas. Bu esa ayollar masalasida izchil xronologik va tizimli tadqiqotlar olib borishga monelik qiladi. Ushbu bo'shliqni to'ldirishda O'rta Osiyoga turli maqsadlar bilan tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar, ayrim rus ma'murlarining esdaliklari hamda vaqtli matbuot nashrlari muhim o'rin tutadi.

11. Mavzuga tegishli manbalarning tahliliga suyanadigan bo'lsak, aholining yashash tarzi (o'troq, yarim o'troq, ko'chmanchi) shar'iy qonun-qoidalar va mahalliy urf-odatlarining ayollar hayotiga ta'siri, turkiy an'analarga ko'ra azaldan mavjud bo'lgan ayolning oila va jamiyatdagi mavqeining saqlanib qolganlik darajasi, ayolning o'rni va rolini turli xil ijtimoiy tabaqalar dinamikasida ko'rib chiqish, Rossiya imperiyasining ma'muriy va diniy boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlari natijasida ro'y bergan musulmon ayolining jamiyat hayotidagi ijtimoiylashuv jarayonini e'tiborga olish talab qilinadi.

12. Xususan, O'rta Osiyoda ayollar jamiyat hayotida ko'z ilg'amas darajada ishtirok etgandek ko'rinsa-da, aslida ular o'sha jamiyatning muhim bir bo'lagi hisoblangan. Ayniqsa, ayol oila-nikoh munosabatlariga kirishishi natijasida sekin-asta uning mavqei ham mustahkamlanib borgan. Bu holat uning oila va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga turtki bergan. Ayrim hollarda er, farzand, ayolning yaqinlari u bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Boshqa hollarda esa ayol ilojsizlik natijasida o'z davrining qurboniga aylangan. Lekin har qanday sharoitda ham ayol o'z haq-huquqlarini talab qilishga intilgan.

13. Yuqori tabaqa vakillari bo'lgan ayollar nikoh munosabatlari orqali siyosiy vaziyatni yumshatish, ikki dushman davlatni yarashtirish, o'zaro hamkorlik aloqalarini tiklash kabi masalalarda ham o'ziga xos ko'prik vazifasini bajargan.

14. Tarix hamisha o'tmish bilan kelajakni bog'lab turuvchi ishonchli ko'prik vazifasini bajargan. Uning sahifalariga muhrlangan voqealar insonlarning o'z ajdodlaridan faxrlanishiga (ba'zida ranjishiga ham), amalga oshirgan ezgu ishlarini davom ettirishiga, shuningdek, ulardan saboq olib, to'g'ri xulosa chiqarishiga sabab bo'lgan. O'ylaymizki, mazkur tadqiqot ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan bo'shliqni to'ldirishga, shu bilan birga, o'rta asr ayollarining hayotini arxiv materiallari, qozilik hujjatlari, tarixiy (zarur o'rinlarda badiiy yo'nalishdagi) asarlar asosida o'rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. XVI-XX asr boshlariga oid oila-nikoh munosabatlariga tegishli hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritish, ularni restr(ro'yxat)larini shakllantirish;

2. O'zbek ayollarining tarixiy qiyofasini yaratish va teleko'rsatuvlar, hujjatli hamda tarixiy kinofilmlar ishlash;

3. Oila-nikoh munosabatlariga oid hujjatlardan foydalangan holda har bir muzeyda alohida ekspanatlar tashkil qilish;

4. Respublika oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti va ijtimoiy-gumanetar yo'nalishi talabalari uchun "Oila tarixi", "Ayollarning oila va jamiyatda tutgan o'rni", "Ayollarning tarixiy qiyofasi" nomli maxsus kurslar yaratish;

5. Ayollar masalasiga oid to'plangan yangi ma'lumotlar asosida maxsus saytlarini yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSC.03/30.12.2021.TAR.26.03
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ НИЗАМИ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ НИЗАМИ**

ХИДИРОВА НАРГИЗАХОН УРИНОВНА

**Положение женщин в семейно-брачных отношениях
(на примере ханств Средней Азии XVI — начала XX века)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент 2025

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора исторических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером № В.2021.4.DSc/Tar31.

Диссертация выполнена в Национальном педагогическом университете Узбекистана имени Низами.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.ik-tarix.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Каримов Эльёр Эрикович**
доктор исторических наук, профессор университета Хофстра (США)

Официальные оппоненты: **Бобожонова Дилором Бобожоновна**
доктор исторических наук, профессор

Аминов Бобур Бобомуродович
доктор исторических наук

Бекмирзаев Илхомжон Исроилжонович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный университет востоковедения**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 при Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами в 2025 году, в _____ часов. (Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-76-51; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами (зарегистрирована под номером ____). Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-76-51; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан «» _____ 2025 года.
(Протокол реестра № ____ от «» _____ 2025 года.)

А. Аскар
председатель Научного совета,
доктор исторических наук, академик

Ё.Р. Тайронов
ученый секретарь Научного совета,
кандидат исторических наук, дотцент

Ф.О. Исматуллаев
председатель Научного семинара при
Научном совете,
доктор исторических наук

ВВЕДЕНИЕ

(Аннотация докторской (DSc) диссертации). Актуальность и необходимость темы диссертации. Глобализационные процессы, происходящие в мире, политические, экономические и социальные изменения поднимают вопросы повышения роли женщин в семье и обществе. Несмотря на то, что женщины обладают правами наравне с мужчинами: трудиться, получать заработную плату, получать образование, участвовать в выборах и избираться - даже в развитых странах сохраняются случаи дискриминации женщин. В связи с этим в Конвенции ООН “О ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин” подчеркивается необходимость изменения социальных и культурных моделей, способствующих этим явлениям¹⁷³.

В мире ведутся научные исследования по вопросам положения женщин в семейно-брачных отношениях, их социального, экономического, политического и правового статуса, исторических этапов формирования этих отношений и тенденций их развития. Одновременно, с изучением истории женщин в западных странах, ведутся исследования традиций и системы отношений к женщинам в странах Востока. Результаты данных исследований позволяют сделать определённые выводы и выработать как теоретические, так и практические рекомендации.

В частности, в Республике Узбекистан также разрабатываются и внедряются в практику меры, направленные на решение проблем, связанных с семьёй, женщинами и воспитанием молодёжи. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев: “Если мы обучим одну девушку, значит, мы просветим всю семью. Если семья образована и просвещённая, возрастает и уровень сознательности, и культурный уровень общества”¹⁷⁴.

Именно поэтому в Стратегии “Узбекистан – 2030” в качестве одной из важнейших задач определено укрепление системы поддержки женщин, защита их законных интересов, повышение их социальной, экономической и политической активности, а также обеспечение гендерного равенства¹⁷⁵.

В связи с этим всестороннее научное исследование и изучение вопросов, связанных с женщинами, занимает особое место. Особенно важно для современного научного осмысления данной проблемы обратиться к её историческим корням, в которых отражается подлинная сущность этих процессов.

К сожалению, такие вопросы, как участие женщин в социальных, политических и экономических процессах, их роль в семейно-брачных отношениях, гендерные отношения в средние века, до сих пор отдельно не изучались в истории Узбекистана. Кроме того, остаются неизученными такие

¹⁷³Хотин-қизлар хуқуқлари камситилишининг барча шакллариға барҳам бериш тўғрисидаги Конвенция. Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 1998.Б. 1-3.

¹⁷⁴О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Xalqaro хотин-қизлар кунига бағ‘ишланган тантанали маросимдаги nutqi. 07.03.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/7928> (дата обращения 10.03.2025).

¹⁷⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли фармони. <https://www.lex.uz/docs/6600413> (дата обращения 12.04.2024).

темы, как постепенное повышение или понижение статуса женщин в семье и обществе, а также особенности обычаев, традиций и норм шариата, связанных с положением женщин, у оседлого, кочевого и полукочевого населения Средней Азии.

Указ Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № УП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управлению и финансированию научно-исследовательских работ”, Указ Президента Республики Узбекистан от 20 сентября 2019 года № УП-5834 “О мерах по совершенствованию архивного дела и делопроизводства в Республике Узбекистан”, Указ Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП-6097 “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года”, Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, Указ Президента Республики Узбекистан от 1 марта 2022 года № УП-81 “О мерах по совершенствованию системы работы с семьёй и женщинами, поддержки махалли и пожилых людей”, Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2017 года № ПК-2995 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, изучения и пропаганды древних письменных источников”, Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 июля 2017 года № ПП-3160 “О повышении эффективности духовно-просветительской работы и выводе отрасли на новый этап развития”, Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2018 года № ПП-4038 “Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан”, Постановление Президента Республики Узбекистан от 11 июля 2019 года № ПП-4390 “О мерах по созданию телеканала “O‘zbekiston tarixi”, а также другие нормативно-правовые документы, регулирующие данную сферу, служат основой для реализации задач, поставленных в настоящем исследовании, и в определённой мере способствуют достижению его целей.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий. Данное исследование соответствует приоритетному направлению развития науки и технологий Республики Узбекистан в рамках программы “Информатизированное общество и пути реализации инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии демократического государства”.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹⁷⁶.

Во всем мире ведутся научные исследования, посвященные положению женщин, их роли в семье и обществе, а также брачно-семейным отношениям в различных аспектах. В частности, изучаются: семейно-брачные отношения, роль шариатских норм в браке, социально-политический статус женщин, гендерные вопросы. Эти темы исследуются ведущими научными центрами и

¹⁷⁶<https://www.dissercat.com>, <https://iea-ras.ru/?p=1173>, <https://ru.ehu.lt/nauka/tsentryi/tsentr-genderniyh-issledovaniy/>, <https://infostudy-usa.com/drew-university>, <https://umd.edu/>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.uwo.edu/index.html>, <https://www.um.edu.my/> и другие источники.

университетами, среди которых: Калифорнийский университет (США), Университет Дрю (США), Университет Мэриленда (США), Университет Вайоминга (США), Университет Индианы в Блумингтоне (Индианский университет США), Кенъон-колледж (США), Университет Малайя (Малайзия), Женский университет Мултана (Пакистан), Университет Западного Сиднея (Австралия), Университет Лавалья (Канада), Боннский университет (Германия), Европейский гуманитарный университет (Литва), Белградский институт истории (Сербия), Университет Казир Хас (Турция), Институт этнологии и антропологии Российской академии наук (Россия), Казахский национальный университет имени аль-Фараби (Казахстан), Институт научных исследований по вопросам семьи и гендера (Узбекистан), Международная исламская академия Узбекистана, Ташкентский государственный университет востоковедения. В результате проведённых исследований, посвящённых положению женщин, их роли в семье и обществе, а также вопросам брачных отношений, были получены следующие научные результаты.

Раскрыты проблемы гендерного равенства и феминистских взглядов у женщин различных национальностей, их место в сфере красоты и искусства (Калифорнийский университет, США); изучены вопросы пола, расы, этнической принадлежности, социальной стратификации женщин, возраста, способностей, а также методы и подходы к изучению женской тематики (Университет Дрю, США); рассмотрены исторические аспекты изменений в жизни женщин, их освобождение от притеснений, подчинённости, пленения и различных предрассудков (Университет Вайоминга, США); исследованы особенности жизни местных женщин, проживавших на территориях крупных империй, и влияние на них имперской политики (Университет Мэриленда, США); освещены вопросы прав женщин в исламе, культуры одежды и проблемы, связанные с положением женщин в казийских документах (Университет Бонна, Германия); а также изучены вопросы женского образования и развития научных исследований, проводимых женщинами (Женский университет Мултана, Пакистан).

В настоящее время в зарубежных научно-исследовательских учреждениях наряду с изучением истории Центральной Азии проводятся исследования, посвящённые роли женщин в семье и обществе в конце XIX — начале XX века, в период существования Российской империи, а также в годы независимости. В этих работах основное внимание уделяется таким вопросам, как отношение женщин к первым медицинским учреждениям, созданным Российской империей, соблюдение личной гигиены, участие женщин-медсестёр в процессе родовспоможения, вовлечённость женщин в трудовую миграцию и влияние миграционных процессов на семейные отношения.

Степень изученности проблемы. Вопросы, касающиеся роли и положения женщин в системе семейно-брачных отношений, на примере ханств Средней Азии, до настоящего времени не рассматривались в исторической науке Узбекистана как самостоятельный объект исследования. Тем не менее, отдельные аспекты данной темы нашли частичное отражение в некоторых

научных работах. Указанные исследования можно классифицировать на четыре направления: **территориальное** (Бухарское, Хивинское, Кокандское ханства и Туркестанское генерал-губернаторство), **проблемное** (историографические вопросы, социально-философские, правовые, этнографические аспекты, деятельность женщин как исторических личностей), **шариатское** (роль женщин в браке, исламская юриспруденция, источники и документы казийских судов) и **зарубежные труды**, в которых рассматриваются вопросы, связанные с положением женщин в семье и обществе.

